«BTS Express Cargo Servis» MChJning
2021 yil, 13 avgustdagi «3-П»-sonli buyrug'i bilan

**«TASDIQLANGAN»**

Bosh direktor

Jalolov B.R.

# «BTS Express Cargo Servis» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan xizmatlar ko'rsatishning

# Umumiy shartlari

Toshkent shahri

Kuchga kirish sanasi: 1 sentabr, 2021 y.

BTS
Complex logistic solutions

YUK TASHISH

YIG'MA YUKLAR

KURYERLIK XIZMATLARI

EKSPRESS POCHTA

E-COM TOVARLARNI YETKAZISH

YUK SAQLASH XIZMATLARI

1230
www.bts.uz / @btsrobot

Tezkor.
Ishonchli.
Hamyonbop.

MUNDARIJA:


1-bob KIRISH VA KOMPANIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR ..... 3
1. Kirish ..... 3
2. Kompaniya haqida ma‘lumot ..... 3
3. Xizmat turlari ..... 3
4. Ish jadvali ..... 4
5. Atamalar, ta‘riflar va ifodalar ..... 4
2-bob UMUMIY QOIDALAR ..... 5
1. Xizmatlarni ko‘rsatish ..... 5
2. SMS-xabarnomaga rozilik ..... 5
3. Shaxsiy ma’lumotlar ..... 5
4. Qabul qilinmaydigan va taqiqlangan jo'natmalar ..... 6
5. Kelishuvni talab qiladigan jo'natmalar ..... 6
6. Jo‘natmalarni qabul qilish va rasmiylashtirish ..... 6
7. Jo’natmalarni tashish ..... 7
8. Jo’natmalarni topshirish (yetkazib berish) ..... 8
9. Qimmatbaho Jo‘natmalar ..... 8
10. Jo‘natmalarni qadoqlash ..... 9
11. Rad etilgan, topshirilmagan va yetkazib berilmagan Jo‘natmalar ..... 9
12. Hujjatlar ..... 10
13. Shikoyat-da’vo ishlari ..... 11
3-bob EKSPRESS POCHTA ..... 11
1. Xizmatning tavsifi ..... 11
2. Jo‘natmalarni qabul qilish va rasmiylashtirish ..... 11
4-bob YIG‘MA YUKLARNI TASHISH XIZMATLARI ..... 11
1. Xizmatning tavsifi ..... 11
2. Jo‘natmalarni qabul qilish va rasmiylashtirish ..... 11
5-bob XALQARO POCHTA ..... 12
1. Xizmatning tavsifi ..... 12
2. Jo‘natmalarni qabul qilish va yetkazib berish (topshirish) ..... 12
3. Jo‘natmalarni yetkazib berish muddatlari ..... 12
4. Jo’natmani qaytarish yoki yetkazish adresini o’zgartirish ..... 12
6-bob E-COM XIZMATLARI ..... 12
1. Xizmatning tavsifi ..... 12
2. Buyurtmani rasmiylashtirish ..... 12
3. Jo‘natmalarni yetkazib berish (topshirish) ..... 13
4. Ustama (tovar uchun) to’lovlarni qaytarish ..... 13
5. Tovar va to’lovlarning monitoringi ..... 13
7-bob KURYERLIK XIZMATLARI ..... 13
1. Xizmatning tavsifi ..... 13
2. Buyurtmani rasmiylashtirish ..... 13
3. Ish jadvali ..... 14
4. Jo‘natmalarni qabul qilish ..... 14
5. Jo‘natmalarni yetkazib berish (topshirish) ..... 14
8-bob YUKLARNI TASHISH XIZMATLARI ..... 15
1. Xizmatning tavsifi ..... 15
2. Buyurtmani rasmiylashtirish ..... 15
3. Ish jadvali ..... 15
4. Jo‘natmalarni qabul qilish (yuklash) va tushirish ..... 15
5. Yuklarni tashish ..... 16
9-bob BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI ..... 16
1. Buyurtmachining huquqlari ..... 16
2. Buyurtmachining majburiyatlari ..... 16
10-bob IJROCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI ..... 17
1. Ijrochining huquqlari ..... 17
2. Yetkazib berish shartlarini bajarmaganlik uchun javobgarlik ..... 18
3. Jo‘natmaning buzilishi yoki yo‘qolishi uchun javobgarlik ..... 18
4. Javobgarlikdan ozod qilish va yengib bo‘lmas kuchlar tufayli yuz bergan vaziyatda majburiyatlarni bajarmaganlik 19

# 1-BOB KIRISH VA KOMPANIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

## 1. Kirish

Ushbu Umumiy Shartlar (keyingi oʻrinlarda Shartlar) ushbu hujjatning 3-qismiga muvofiq «BTS Express Cargo Servis» MChJ (keyingi oʻrinlarda BTS/Ijrochi) tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga pochta Joʻnatmalarini yetkazish va boshqa xizmat turlarini koʻrsatishning umumiy qoidalari, tamoyillari va tartibini belgilaydi.

BTS-ning faoliyati Oʻzbekiston Respublikasining "Aloqa toʻgʻrisida", "Pochta aloqasi toʻgʻrisida"gi qonunlari, pochta aloqasi xizmatlarini koʻrsatish qoidalari, avtomobil transporti toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ushbu Umumiy shartlarga kiritilgan barcha ilovalar uning ajralmas qismidir.

## 2. Kompaniya haqida maʻlumot

«BTS Express Cargo Servis» (keyingi oʻrinlarda BTS/Ijrochi) Oʻzbekistonda «BTS» tovar belgisi (brendi) ostida faoliyat yuritadi.

| | |
|---|---|
| **Yuridik manzili:** | Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sirgʻali tumani, 3-mavze, Obihayot koʻchasi., 3-uy, pochta indeksi – 100209 |
| **Bosh ofisning joylashish manzili:** | Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Furqat koʻchasi., 6-uy, pochta indeksi – 100021 |
| **Bogʻlanish telefonlari:** | **Yagona call-markazi:**<br>1230 (Oʻzbekiston hududida amal qiladi)<br>+998 71 207 08 09<br>**«Ekspress-pochta», «Yigʻma yuklar»:**<br>Korporativ mijozlar uchun: +998 93 390 76 41<br>Mijozlarga xizmat koʻrsatish boʻlimi: +998 93 505 25 89<br>**«Kuryerlik xizmatlari»:**<br>Kuryerlik xizmatining dispetcheri: +998 93 505 02 25 |
| **Elektron pochta:** | Umumiy: info@bts.uz<br>Korporativ mijozlar uchun: sales@bts.uz |
| **Elektron maydonchalar:** | **Web-sayt:** www.bts.uz<br>Facebook sahifasi: www.fb.com/ExpressBTS<br>Instagram sahifasi: www.instagram.com/ExpressBTS<br>Telegram-kanali: https://t.me/ExpressBTS<br>Telegram bot: https://t.me/btsrobot |
| **BTS-ofislari roʻyxati:** | http://bts.uz/uz/ofislar/ saytida |

## 3. Xizmat turlari

BTS Shartlarning boblarida taʻriflangan quyidagi xizmatlarni koʻrsatadi:

1. Pochta xizmatlari (ogʻirligi 20 kg gacha boʻlgan Joʻnatmalar), «Ekspress pochta»;
2. Oʻzbekiston shaharlari oʻrtasida yigʻma yuklarni yetkazib berish xizmati (LTL) (Ogʻirligi 20 kg dan 1000 kg gacha boʻlgan Joʻnatmalar): «Yigʻma yuk»;
3. Xorijiy davlatlarga pochta yetkazib berish xizmati: «Xalqaro pochta»;
4. Joʻnatmalarni Jo'natuvchining eshigidan qabul qilib Oluvchining eshigigacha yetkazish: «Kuryerlik xizmati»;
5. Elektron tijoratga tovarlarni xaridorlarga yetkazib berish xizmatlarini koʻrsatish: «E-COM»;
6. Toʻliq transportda yuklarni eshikdan eshikkacha yetkazib berish xizmatlari (FTL) (1000 kg dan ogʻir yuklarni yetkazib): «Yuklarni yetkazib berish»;
7. Bojxona ombori xizmatlari;
8. Bojxona deklaratsiyasi xizmatlari.

Har bir xizmat Ilovada koʻrsatilgan (6-Ilova) boshqa xizmatlar, optsiyalar yoki qoʻshimcha toʻlovlar bilan Tarif kartasida koʻrsatilgan narxlar va muddatlarda toʻldirilishi mumkin.

## 4. Ish jadvali

Ijrochi, agar BTS-ning alohida ofislarida va alohida xizmatlarida boshqacha tartib tasdiqlanmagan boʻlsa (maʻlumot www.BTS.uz veb-saytida taqdim etilgan), BTS-ning yuklarni ish jadvaliga muvofiq qabul qiladi va topshiradi:

- ish kunlari soat 8:30 dan 18:00 gacha (dushanba-juma);
- bayramoldi va shanba kunlari soat 8:30 dan 16:00 gacha;
- Yakshanba va bayram kunlari dam olish kunlari.

## 5. Atamalar, taʻriflar va ifodalar

Ushbu Shartlar matnida quyidagi taʻriflar va atamalar qoʻllaniladi:

**Buyurtma** - Buyurtmachining Ijrochi tomonidan xizmatlar koʻrsatish uchun ogʻzaki, yozma yoki elektron shakldа tuzilgan topshirigʻi.

**Buyurtmachi** - xizmatlar koʻrsatish uchun buyurtma beradigan va koʻrsatilgan xizmatlar uchun haq toʻlaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**BTS vakili** - BTS nomidan yoki uning topshirigʻiga koʻra xizmatlar koʻrsatish huquqiga ega boʻlgan yuridik shaxs yoki Ijrochining xodimi.

**BTS Ofisi** - Joʻnatmalarni qabul qilish va berish, ularni saqlash, saralash va boshqa tarzda ishlov berish boʻyicha BTS brendi ostida ishlaydigan, Joʻnatuvchilar va Oluvchilarga xizmat koʻrsatish uchun jihozlangan punktlar.

**BTS yukxati** – Joʻnatmaga hamroh boʻlgan hujjat. U oʻz ichiga keyingi maʻlumotni olgan: Joʻnatuvchi, Oluvchi, yetkazib berish shartlari, qabul qilish va yetkazib berish manzili, sanasi, vaqti, hajmi, ogʻirligi va tarkibi, narxi va toʻlov turi, shuningdek Joʻnatma bilan bogʻliq boshqa maʻlumotlarni oʻzida mujassam etadi.

**BTS Tuman Ofisi (RO)** - shaharlarda, tuman markazlarida va qishloqlarda, BTS markasi ostida ishlaydigan, jo'natmalarni qabul qilish va berish, ularni saqlash, saralash va boshqa ishlov berish uchun Jo'natuvchi va Oluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun jihozlangan punktlar. ROda yuklarni qabul qilish oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi. BTS tuman ofislarining joriy ro'yxati www.bts.uz veb-saytida keltirilgan.

**BTS Markaziy Viloyat Ofisi (MVO)** - ma'muriy, saralash funktsiyalarini, yuklarni qabul qilib olish va yetkazib berishni, Jo’natmalarni yig'ib olish va unga yuklatilgan BTS tuman bo'limlariga topshirishni, shuningdek, Jo'natuvchi va Oluvchilarga boshqa xizmatlar ko'rsatishni amalga oshiradigan BTS Markaziy hududiy ofisi. BTS markaziy viloyat ofislarining joriy ro'yxati www.bts.uz veb-saytida ko'rsatilgan.

**BTS Ofisi** – RO yoki MVOni oʻzini ichiga olgan tushuncha.

**Fotohisobot** – joʻnatish jarayoni, Oluvchi, joy, hujjatlar koʻrinadigan yoki BTS vakili tomonidan Joʻnatmani yetkazib berish yoki topshirishga urinayotgani toʻgʻrisida xulosa qilinishi mumkin boʻlgan boshqa holatlar aks ettirilgan fotosurat.

**Ijrochi/Tashuvchi** - ushbu Shartlarga muvofiq oʻz xizmatlarini taqdim etadigan BTS.

**Joʻnatma** - bitta Buyurtma boʻyicha bitta manzildan boshqasiga yetkazib beriladigan posilkalar toʻplami.

**Joʻnatuvchi** – Ijrochiga yukni topshiradigan Buyurtmachining vakolatli vakili yoki Buyurtmachining oʻzi.

**Kuryerlik xizmatlari** – Jo’natuvchidan qabul qilish va Oluvchiga BTS ofislaridan tashqarida yetkazib berish (topshirish) faoliyati.

**Oluvchi** – BTS-ning yukxatiga koʻra Joʻnatma yuborilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Optsiyalar** – qoʻshimcha xizmatlar, ularning narxi asosiy / maxsus xizmat narxiga kiritilishi yoki kiritilmasligi mumkin.

**Ofis joʻnatilish oynasi vaqti (OJV)** - ushbu ofisda qabul qilingan jo'natmalarning boshqa shaharlarga jo'natish (tashish) amalga oshiriladigan vaqt. Belgilangan OJV dan keyin ushbu ofisga mijozlardan qabul qilingan yuklar keyingi ish kuni jo’natish vaqtida yuboriladi. SBI haqida ma'lumot ofisning o'zida yoki Ijrochining veb-saytida mavjud.

**Ofisga kelish oynasi vaqti (OKV)** - boshqa shaharlardan Yuklarni yetkazib berish (tashish) amalga oshiriladigan vaqt. OKV haqida ma'lumot ofisning o'zida yoki Ijrochining veb-saytida mavjud.

**Posilka** - Ijrochiga topshirilgan, ogʻirligi 20 kg gacha boʻlgan har qanday tashish, saqlash yoki ishlov berish obʻekti (konvert, paket, qop, quti, pallet, konteyner yoki boshqa narsalar).

**Yuk** - 20 kg dan ortiq Joʻnatma.

**Tomonlar** - Ijrochi va Buyurtmachi birgalikda, "Tomon" - Ijrochi yoki Buyurtmachi alohida.

**Qiymati eʻlon qilingan Joʻnatmalar** – Buyurtmachi tomonidan yuborish paytida qiymati eʻlon qilinadigan Joʻnatmalar.

**Qimmatbaho posilka** – tashish paytida ichidagi Joʻnatmaning yoʻqolishi yoki shikastlanishi xavfini kamaytirish uchun qoʻshimcha xavfsizlik choralarini talab qiladigan posilka. Qimmatbaho posilkalarga bozorda xaridorgirligi (likvidligi) va tovar birligining narxi yuqori boʻlgan tovarlar kiradi. Masalan: soatlar, mobil telefonlar, kompyuterlar yoki maishiy texnika, ular uchun maxsus jihozlar yoki ehtiyot qismlar.

**Shikoyat dalolatnomasi** - Tomonlarning vakillari yoki bir Tomon tomonidan manfaatdor boʻlmagan tashkilot vakili / ekspert ishtirokida tuzilgan va imzolangan (agar boshqa Tomon dalolatnomani imzolashga qodir boʻlmasa yoki uni imzolashdan bosh tortsa) ushbu Shartlar doirasida Tomonlar majburiyatlarini buzganligini hujjatlashtirish uchun tuziladigan dalolatnoma. Oʻrnatilgan shakldagi shikoyat dalolatnomasini Ijrochining www.bts.uz saytida yuklab olish mumkin.

**«Telegram Bot» @btsrobot** – "Telegram" messenjeri asosida buyurtmalarni rasmiylashtirish va maʻlumot olish uchun moʻljallangan maxsus dastur.

# 2-BOB UMUMIY QOIDALAR

Ushbu bobda taʼriflangan qoidalar umumiy boʻlib, keyingi boblarda taʼriflangan barcha xizmatlarga tegishlidir.

Xizmatlarning ayrim (keyingi boblarda taʼriflangan) turlarining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni taqdim etish shartlari umumiy qoidalarni toʻldirishi yoki ularga zid boʻlishi mumkin. Ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, alohida xizmatlar bobida taʼriflangan qoida va shartlar Umumiy qoidalardan ustun turadi.

## 1. Xizmatlarni koʻrsatish

Xizmatlar Tariflar Kartasida koʻrsatilgan belgilangan muddatlarda, segmentlashtirish, yoʻnaltirish va narxlar boʻyicha taqdim etiladi.

Xizmatlar yuridik shaxslar bilan ular bilan tuzilgan shartnomalarga hamda jismoniy shaxslar bilan ommaviy oferta (taklif)ga muvofiq amalga oshiriladi.

Tomonlar xizmat koʻrsatish shartnomasining ilovasida koʻrsatilgan alohida tariflar va/yoki xizmatlar boʻyicha kelishishlari mumkin.

## 2. SMS-xabarnomaga rozilik

Xizmatni buyurtma qilish orqaliBuyurtmachi oʻziga, shuningdek, uning Joʼnatuvchilariga/Oluvchilariga Ijrochi tomonidan oʻz majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan SMS-xabarlarni, shuningdek Ijrochining xizmatlari toʻgʻrisida boshqa maʼlumotlarni yoʻllashi mumkinligiga rozilik beradi. Buyurtmachi Ijrochidan SMS-xabarlarni qabul qilish uchun oʻz Joʼnatuvchi/Oluvchilarining roziligini kafolatlaydi.

## 3. Shaxsiy maʼlumotlar

Buyurtmachi ushbu Xizmat koʻrsatish Shartlarida nazarda tutilgan har qanday usulda Ijrochiga oʻz buyurtmasini yuborish orqali uning oʼz shaxsiy maʼlumotlarini BTS tomonidan ishlov berishga rozilik beradi.

Buyurtmachi/Joʼnatuvchi/Oluvchi - jismoniy shaxslar, “Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining talablariga muvofiq, BTS yukxatini toʻldirish va imzolash orqali, oʻzlarining shaxsiy maʼlumotlari (familiyasi, ismi, otasining ismi, manzili, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili va boshqalar)ni oʻz xohish-irodasi va manfaati uchun BTS tomonidan Joʻnatmalarni yetkazib berish boʻyicha xizmatlar koʻrsatish maqsadida yollangan ijrochilar tomonidan qayta ishlanishiga rozilik bildiradi/tasdiqlaydi.

Buyurtmachi - yuridik shaxs, Joʼnatmalarni yetkazib berish boʻyicha xizmatga buyurtma berishda Joʼnatuvchi/Oluvchining xodimlari-jismoniy shaxslarning shaxsiy maʼlumotlari (familiyasi, ismi, otasining ismi, manzili, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili)ni qayta ishlash uchun BTS va/yoki uning Ijrochilari tomonidan

Jo‘natmalarni yetkazib berish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish maqsadida ishlov berish uchun roziligi mavjudligini tasdiqlaydi.

Shaxsiy ma’lumotlarni ishlov berishga rozilik berilgan harakatlar ro‘yxati: ushbu Shartlarga muvofiq Jo‘natmalarni yetkazib berish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish uchun avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan shaxsiy ma’lumotlarni ishlov berishni , shu jumladan yig‘ish, yozish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish, chiqarib olish, foydalanish, taqdim etish, shaxssizlantirish, blokirovka qilish, olib tashlash, yo‘q qilish.

BTS/Buyurtmachi/Jo’natuvchi/Oluvchilar tomonidan shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida O’zbekston Respublikasining 2019 yildaig 2 iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘QR-547-son Qonun talablariga muvofiq, ularning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlashi kerak, bunda, ushbu shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadi talab etadigan muddatdan ortiq saqlanmaydi va ularni qayta ishlash maqsadlariga erishgandan so‘ng yoki ularni amalga oshirish zaruriyati yo‘qolgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida tegishli huquqiy munosabatlar uchun belgilangan da’vo muddati tugagandan keyin yo‘q qilinadi, zarurat bo’lganda so‘rov bo‘yicha ko‘rsatilgan shaxsiy ma’lumotlar yo‘q qilinganligini to’g’risida tasdiqlash talab qilinadi. Jismoniy shaxsning yozma arizasiga muvofiq kelishuv istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

## 4. Qabul qilinmaydigan va taqiqlangan jo'natmalar

Ijrochi tashish uchun taqiqlangan narsalar va moddalarni qabul qilmaydi (2-Ilovaga qarang). Shu bilan birga, ayrim toifalar ularni tashish imkoniyati va shartlari uchun ijrochi bilan kelishishni talab qiladi.

Ushbu ro'yxatga kiritilgan posilka aniqlanganda (2-Ilovaga qarang), lekin O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq uni saqlash va muomalaga chiqarish taqiqlanmagan bo’lsa, Ijrochi o'z xohishiga ko'ra uni jo'natuvchiga qaytaradi yoki buyurtmachiga posilkani ijrochi tomonidan ko'rsatilgan manzildan olish ketish talabini yuboradi. Bunday posilkalarni qaytarish va saqlash buyurtmachining hisobidan amalga oshiriladi.

Jo’natma xususiyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq taqiqlangan va/yoki saqlash va muomalasi cheklanagan predmetlar ro'yxatiga kiritilgan deb topilsa yoki shubha qilingan taqdirda, Ijrochi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq keyingi chora-tadbirlar ko'rish uchun tegishli davlat organlariga murojaat qiladi. Xususan, bunday predmetlar quyidagilardan iborat: pul, qurol, portlovchi moddalar, giyohvand moddalar, radioaktiv, biologik, kimyoviy yoki boshqa xavfli moddalar, taqiqlangan yoki litsenziyalanmagan adabiyotlar va boshqalar.

## 5. Kelishuvni talab qiladigan jo'natmalar

Tarkibi kelishuvni talab qiladigan jo'natmalar (2-Ilovaga qarang) ularni tashish imkoniyati va shartlari uchun Ijrochi bilan oldindan kelishilgan bo'lishi kerak. Agar ijrochidan tashishga oldindan rozilik olinmagan bo'lsa, buyurtmachi jo’natmani topshirgan va Ijrochi jo’natmani qabul qilgan bo'lsa:

- Ijrochi tashishning istalgan bosqichida jo’natmani keyingi bosqichidagi tashishdan bosh tortish huquqiga ega;
- Ijrochi xizmat ko'rsatish shartlarini (narx, yetkazib berish muddati va manzili, javobgarligi) bir tomonlama ko’rib chiqish huquqiga ega, bu Buyurtmachi tomonidan qabul qilinishi kerak;
- Agar jo’natmani tashish maxsus shartlarni talab qilsa (masalan, harorat rejimi, yuklash va tushirish shartlari, yetkazib berish muddati, qo'shimcha hujjatlar, sertifikatlar va boshqalar), Ijrochi yukning xavfsizligi, yaxlitligi va yetkazib berish faktlari uchun javobgar bo’lmaydi.
- Jo’natma Jo’natuvchiga qaytarilganda, uni utilizatsiya qilish zarur bo'lgan hollarda yoki buyurtmachi tomonidan olib ketilishi kerak bo’lsa, Buyurtmachi ijrochi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar yoki uning xarajatlari narxini to'lashi lozim bo’ladi.
- Ijrochi yuqorida ko'rsatilgan holatlar bilan bog'liq Buyurtmachi (shuningdek, Jo’natuvchi yoki Oluvchining) to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita yo'qotish va zararlar uchun javobgar bo’lmadi.

## 6. Jo‘natmalarni qabul qilish va rasmiylashtirish

Jo’natmalarni qabul qilish BTS ofislarida yoki kuryerni chaqirish orqali amalga oshiriladi.

BTS ofisida yuridik shaxsdan jo’natma qabul qilinganda, ushbu yuridik shaxsning vakili o'z vakolatlarini tasdiqlash sifatida o’z shaxsni tasdiqlovchi hujjatni, shuningdek, ushbu yuridik shaxs tomonidan berilgan ishonchnoma yoki yuk (tovar) tashish hujjatlarini taqdim etishi shart. Buyurtma berishda yuridik shaxs nomidan jo’natmalarni qabul qiladigan yuridik shaxs vakili (yuridik shaxs bilan bog’lanish uchun shaxs) haqida ma'lumot mavjud bo'lgan taqdirda, uning vakolatlari qo'shimcha ravishda tekshirilmaydi. Yetkazib berish uchun jo’natmani qabul qilish BTS yuk xatini

rasmiylashtirish, shuningdek jo'natuvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarni topshirish bilan birga amalga oshiriladi.

Jo’natma qadoqlangan bo'lishi kerak, lekin Jo’natuvchi tomonidan jo’natmani ijrochiga yuborishdan oldin muhrlanmasligi kerak. Ijrochi jo’natmaning tarkibi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak (Qabul qilinmaydigan va taqiqlangan jo'natmalar va Kelishuvni talab qiladigan jo'natmalarga qarang). Ijrochi tomonidan jo’natma tarkibi tekshirilgandan so’ng, Jo’natuvchi jo’natmaning ichki qismiga kirish imkoniyatini oldini olish uchun jo’natmani muhrlashi kerak.

Ijrochi jo’natmaning og'irligi va o'lchamlarini o'lchaydi (1-ilovaga qarang Og‘irlik va hajmni aniqlash. Hajmli va pullik og‘irlik tushunchasi.), shuningdek, xizmatlar ko'rsatish va xizmatlar narxini hisoblash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni aniqlab beradi.

Ijrochi Jo’natuvchining posilka ichidagi Jo‘natma to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirishga haqlidir.

Agar Ijrochi va Buyurtmachining qo‘shimcha kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, Ijrochi ichki tarkibi qayta hisoblanadigan posilkalari mavjud Jo‘natmalarni qabul qilmaydi, shuningdek, BTS yukxatida uning ro‘yxatini qayd etmaydi.

Agar yuk tog’risidagi qo’shimcha hujjatlar (yuk-transport hujjatlari, hisob-fakturalar) zarur bo‘lsa, Jo’natuvchi ularni mustaqil ravishda to‘ldirishi kerak. Ijrochi Jo’natuvchining ichki hujjatlariga imzo chekishga haqli emas.

Buyurtmachidan har bir Jo‘natmani qabul qilishda Ijrochi Buyurtmachi/Jo’natuvchi bilan birgalikda yoki Buyurtmachi/Jo’natuvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Buyurtmachi tomonidan imzolanishi shart bo‘lgan BTS Yukxatini ishlab chiqadi (5-Ilova BTS yukxatining shakli va to‘ldirish tartibi). Jo’natuvchi BTS yuk xatida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va to'g'riligi uchun javobgardir.

BTS yuk xatini Buyurtmachining o'zi to’ldirib, chop etgan taqdirda (mijozning dasturiy ta'minoti va BTS Space o'rtasida dasturiy ta'minotni birlashtirish yoki BTS Space shaxsiy kabinetiga kirish orqali), BTS yuk xati mijoz tomonidan imzolanishi talab qilinmaydi va tasdiqlangan hisoblanadi. Buyurtmachi tomonidan yuk xatini to'ldirilishi va chop etilishi, Ijrochining jo’natmani tekshirishini va takroriy o'lchovini, keyinchalik yuk xatiga o'zgartirish kiritishini istisno qilmaydi.

Elektron yoki qog‘oz shaklda yukxatini imzolash yoki xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish orqali Buyurtmachi/Jo’natuvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va rozilik bildiradi:

- BTS yukxatida kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini;
- ushbu Shartlarni;
- Jo‘natmada taqiqlangan narsalar va moddalarning yo‘qligini (Qabul qilinmaydigan va taqiqlangan jo'natmalar bo’limiga muvofiq);

Jo’natuvchidan jo’natmani ijrochi tomonidan qabul qilinganligini quyidagilar tasdiqlaydi:

- So'rov bo'yicha chop etiladigan va BTS ofislarida Jo’natuvchiga beriladigan yuk xatining nusxasi.
- Jo’natuvchi tomonidan ko'rsatilgan telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabar orqali yuborilgan elektron chek, bunda jo’natmaning individual raqami (BTS yuk shtrix kodi) ko'rsatilgan bo’ladi.
- Telegram ro'yxatdan o'tgan abonentga @Btsrobot orqali yuborilgan elektron chek yoki yuk xatining elektron nusxasi (5-Ilovaga qarang), bunda jo’natmaning individual raqami (BTS yuk shtrix kodi) ko'rsatilgan bo’ladi.
- BTS Space tizimidagi shaxsiy kabinet orqali buyurtmachi tomonidan ariza topshirishda elektron shaklda olingan tasdiqlar

## 7. Jo’natmalarni tashish

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha, agar Tomonlar boshqacha kelishmagan bo‘lsalar, Jo‘natmalarni tashish va yetkazib berish yer usti (avtomobil) transporti orqali amalga oshiriladi.

Buyurtmachining Jo‘natmasini yetkazib berish yo‘nalishi va usuli, shu jumladan Jo‘natmani oraliq qayta yuklash punktlari orqali o‘tish imkoniyati Ijrochi tomonidan faqat o‘z ixtiyori bilan tanlanadi.

Ijrochi yetkazib berish muddatini quyidagi hollarda uzaytirishi mumkin:

- Jo‘natmalarni qabul qilishda e’lon qilingan qiymati 50 mln so’mdan yuqori jo’natmalar;
- Kelishuvni talab qiladigan Jo‘natmalarni qabul qilishda (2-Ilovaga qarang);
- Qo‘shimcha qadoqlashni talab qiladigan Jo‘natmalarni qabul qilishda;

- Jo‘natmani Ijrochiga Shartlarda belgilangan muddatlardan kechikib topshirishda;
- Buyurtmada yoki yuk xatida kiritilgan ma’lumotlar to‘liq bo‘lmaganda/noto‘g‘ri ekanligida.

Yetkazib berish jarayonida yetkazib berish manzilini va/yoki Oluvchini o‘zgartirish faqat Buyurtmachining yozma buyrug‘i hamda (agar manzilni o‘zgartirish Ijrochi xizmatlari narxini oshirishiga olib kelsa) qo‘shimcha to‘lov bilan amalga oshiriladi.

## 8. Jo’natmalarni topshirish (yetkazib berish)

Jo’natmalar BTS ofislarida Oluvchiga topshiriladi yoki kuryer orqali oluvchining manziliga yetkazib beriladi (agar tomonlar boshqacha kelishmagan bo'lsa).

Jo’natma Oluvchiga eng yaqin bo'lgan BTS ofisiga kelganda, Oluvchiga jo’natmaning shtrix -kodi, Jo’natuvchining ismi, BTS ofisining manzili ko'rsatiladigan SMS -xabarnoma yuboriladi (agar Oluvchi o’zi yukni olib ketishi kerak bo’lsa) yoki yukni kuryer orqali yetkazib berilishi to’g’risida xabar beriladi. Jo'natma BTS ofisiga qabul qilingandan so’ng Ijrochi Oluvchini chaqirishga majbur emas. Ijrochi Oluvchiga yuk xatida ko’rsatilgan raqam bo’yicha yuborilgan SMS-xabarnoma Oluvchining BTS ofisidan Jo'natmani iloji boricha tezroq olib ketishi bo’yicha choralar ko’rish uchun yetarli asos bo'lishini hisobga oladi.

Agar maxsus tartiblar yoki Ijrochi va Buyurtmachining qo‘shimcha kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, Ijrochi Jo‘natmaning qadog‘i shikastlanmagan bo‘lsa, uning ichidagi mahsulot yoki predmetni qayta hisoblamasdan Oluvchilarga topshiradi.

Jo‘natmani Oluvchining yuridik shaxs vakiliga topshirish paytida Ijrochi undan ushbu yuridik shaxs tomonidan unga berilgan ishonchnomani talab qilishga haqlidir. Ijrochi yuridik shaxs uchun Jo‘natmani Oluvchi shaxsni qo‘shimcha tekshiruvsiz quyidagi holatlardan kamida bittasi mavjud bo‘lsa, uni ushbu yuridik shaxs nomidan harakat qilish uchun yetarli vakolatga ega deb hisoblashga haqlidir:

- ushbu shaxs ushbu yuridik shaxsning xodimi bo‘lib, BTS yuk xatida yoki yetkazib berish reestrida ko‘rsatilgan manzilda turgan bo‘lsa;
- ushbu shaxs ushbu yuridik shaxsning muhriga yoki shtampiga ega bo‘lsa;
- ushbu shaxs ilgari ushbu yuridik shaxsga yuborilgan biror-bir Jo‘natmalarni qabul qilgan bo‘lsa, agar ushbu Jo‘natmani nomuvofiq shaxsga yetkazib berilgani to‘g‘risida da’volar va bildirishnomalar kelib tushmagan bo‘lsa;
- ushbu shaxs (ushbu yuridik shaxs joylashgan biznes markazi binosidagi) nazorat-o‘tkazish punkti, kotibiyat, qabulxonaning xodimi bo‘lsa va o‘zining kundalik vazifalarini bajarish doirasida harakat qilsa.

Yuridik shaxs vakili tegishli vakolatlarga ega ekanligini bildiradigan holatlar ro‘yxati cheklanmagan, chunki bu har bir muayyan holatga bog‘liq. Ushbu holatlarni baholash Ijrochining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Oluvchi yoki uning vakili Yetkazib berish to‘g‘risidagi foto-hisobot mavjud bo‘lganda yoki Jo‘natmani olgandan keyin BTS-ning yukxatini elektron yoki qog‘oz shaklida imzolaganda, Jo‘natmani va uning tarkibidagi buyumlarning qabul qilinganligi va yaxlitligini, shuningdek Ijrochining xizmatlariga e’tirozlarning yo‘qligini tasdiqlaydi. Oluvchi tomonidan BTS yukxati imzolanganidan keyin Ijrochi tomonidan taqdim etilgan xizmatlar sifati va Jo‘natmaning tarkibi bo‘yicha da’volar qabul qilinmaydi.

Buyurtmachi tomonidan xizmatlarning lozim darajada bajarilmagani haqida e’tirozi bo‘lgan taqdirda, Tomonlar Umumiy Shartlarning 13-bandini “Shikoyat-da’vo ishlari” qo‘llaydilar.

## 9. Qimmatbaho Jo‘natmalar

Qimmatli yoki bahosi yuqori bo‘lgan Jo‘natmani topshirishda Buyurtmachi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- bu haqda Ijrochini oldindan xabardor qilish va Jo‘natmani qabul qilish va yetkazib berish shartlari va muddatlarini muhokama qilish;
- Jo‘natmani Ijrochiga topshirishda uning miqdori, sifati va yaxlitligini ko‘rsatish;
- Jo‘natmaning ichidagilarni ro‘yxatini tuzish, narxini e’lon qilish va “ООЦ” (Jo‘natma qiymatini e’lon qilish) optsiyasidan foydalanish;
- Ijrochining so‘roviga binoan, Jo‘natmaning e’lon qilingan qiymatini asoslab berish.

Qimmatli yoki bahosi qimmat bo‘lgan Jo‘natmalar sifatida Buyurtmachi shunday deb e’tirof etgan tovarlar, buyumlar va materiallar hisoblanadi (telefon, kompyuterlar,zargarlikbuyumlari, maishiy texnika va x.k.).

Jo‘natmani olishdan oldin Ijrochi qiymati e’lon qilingan Jo‘natmani yetkazib berishni rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Buyurtmachi Ijrochiga qimmatbaho Jo‘natmani topshirishda Ijrochiga Jo’natuvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish, shuningdek, Buyurtmachining Jo‘natmani topshiradigan vakili bo‘lgan shaxsga berilgan ishonchnoma, pasport yoki Jo’natuvchini aniqlashga imkon beradigan boshqa hujjat orqali Jo’natuvchini aniqlash imkoniyatini ta’minlashi lozim.

Buyurtmachi Ijrochiga qimmatbaho Jo‘natmani topshirishda Ijrochiga Oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish, shuningdek, Oluvchining Jo‘natmani qabul qiladigan vakili bo‘lgan shaxsga berilgan ishonchnoma, pasport yoki Oluvchi aniqlashga imkon beradigan boshqa hujjat orqali Oluvchini aniqlash imkoniyatini ta’minlashi lozim.

## 10. Jo‘natmalarni qadoqlash

Barcha pochta Jo'natmalari, agar ularning hajm o'lchalari mos keladigan bo'lsa, BTS seyf-paketlariga solinishi kerak.

Buyurtmachi Jo‘natmalar uchun quyidagilarni ta’minlaydigan qadoqlar turini tanlash va to’gri qadoqlash uchun javobgardir:

- ularga ishlov berishda va yetkazishda jo’natma tarkibini biror-bir shikastlanishdan saqlanishini;
- ishlov berish va tashish paytida boshqa yuklarning qadoqlanishi va tarkibining xavfsizligi va yaxlitligini;
- Ijrochining Jo‘natmalarga ishlov beradigan va tashiydigan xodimlarining xavfsizligini, shuningdek
- Ijrochining texnik vositalarini xavfsizligini.

Tashish paytida Jo‘natmani odatdagi xavflardan saqlash uchun qadoq o‘zining ichidagi Jo‘natmaning xossalariga va tashish usuliga munosib bo‘lishi kerak. Qadoqda zarur yorliqlar/ishlov berish belgilari qo‘yilishi lozim.

Buyurtmachi jo’natma ichidagi tarkibiy qismlarning xossalariga qarab jo’natmani qadoqlash talablariga rioya qilishi lozim (3-Ilovaga qarang). Agar Buyurtmachi belgilangan talablarga rioya qilmasa, u Jo‘natmani Ijrochiga topshirish orqali posilka ichki tarkibining saqlanishi/butligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Buyurtmachi, agar u Ijrochiga qo‘shimcha qadoqlanishni buyurtma qilgan bo‘lsa va Ijrochi uni mustaqil ravishda bajargan bo‘lsa, qadoqlash sifati uchun javobgar bo‘lmaydi.

BTS firmaning qadoqlash materiallari (seyf-paketlar, konvertlar, qutilar va boshqalar)ni taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 maydagi "Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3730-son qaroriga muvofiq, buyurtmachi foydalanilgan polimer plyonkadan tayyorlangan seyf paketlar va boshqa qadoqlash paketlari narxini to'laydi.

Qadoqlash materiallarining to‘liq ro‘yxati va ularning narxi www.BTS.uz veb-saytining "Qadoqlash materiallari" bo‘limida ko‘rsatilgan.

Ba’zi hollarda, jo’natma qo‘shimcha qadoqlanishini amalga oshirish uni yetkazib berish vaqtini va/yoki narxini oshirishi mumkin.

## 11. Rad etilgan, topshirilmagan va yetkazib berilmagan Jo‘natmalar

Jo'natma Oluvchiga kuryer orqali yetkazib berilganda, Oluvchiga Jo’natmani yetkazib berish/taqdim etishning iloji bo'lmagan holatlar bo'lishi mumkin (KURYERLIK XIZMATLARIga qarang). Bunday holda, talab qilib olinguncha Jo’natma Oluvchi uchun eng yaqin bo’lgan BTS ofisida qoldirilishi mumkin.

Agar Jo‘natma BTS ofisida Oluvchiga topshirilishi sharti bilan yuborilgan bo‘lsa, Oluvchi Jo‘natma BTS ofisiga kelganidan keyin uni 10 ish kunidan kechiktirmay olib ketishi kerak.

Topshirilmagan Jo‘natmalariga nisbatan Buyurtmachi qo‘shimcha ko‘rsatmalar yuborishi, Ijrochi esa qo‘shimcha xizmatlarni taqdim etishi kerak. Topshirilmagan Jo‘natmalar Buyurtmachidan tegishli ko‘rsatmalar olinganidan keyin qaytarib berish uchun rasmiylashtiriladi.

Buyurtmachiga Jo‘natmani qaytarishda:

- Buyurtmachi qaytgan Jo‘natmani qabul qilganda, uni ko‘zdan kechiradi va ushbu Jo‘natma bilan bog‘liq bo‘lgan posilkalarning haqiqiy sonini aniqlashtiradi. Agar ushbu Jo‘natma bilan bog‘liq bo‘lgan posilkalarning transport qadoqlarida ochilish yoki buzilish belgilari bo‘lmasa va qabul qilingan posilkalarning haqiqiy soni BTS yuk xatida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, u holda shikoyat dalolatnomasi

rasmiylashtirilmaydi va posilkalarning ichki tarkibini tekshirish va tavsiflash amalga oshirilmaydi, chunki ushbu Jo‘natmalar xaridorga hech qanday e’tiroz va og‘ishlarsiz qaytarilgan hisoblanadi.
- Agar Buyurtmachi Jo‘natmani olgandan so‘ng ushbu Jo‘natma bilan bog‘liq bo‘lgan posilkaning transport qadoqlarida ochilish yoki buzilish izlari borligini aniqlasa, Buyurtmachining arizasi (tashabbusi)ga binoan darhol ushbu posilkaning ichki tarkibi tekshiriladi, tavsiflanadi va da’vo arizasi tuziladi.
- Agar ko‘p o‘rinli Jo‘natmadagi biron-bir posilkaning transport qadog‘i buzilgan bo‘lsa, ushbu Jo‘natmadagi qolgan posilkalarning ichki tarkibi tekshirilmaydi va tavsiflanmaydi.
- Agar Jo‘natmani qabul qilgandan so‘ng, Buyurtmachi ushbu Jo‘natmaga tegishli posilkalarning haqiqiy soni BTS yukxatida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga mos kelmasligini aniqlasa, Buyurtmachining iltimosiga (tashabbusiga) binoan darhol posilkalarning ichki tarkibini taqqoslash va tavsiflash amalga oshiriladi va shikoyat dalolatnomasi tuziladi. Ikkala holatda ham Jo‘natmaga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar (yozma yoki elektron tovar-tovar-transport yukxatlari)dan foydalaniladi.
- Agar posilkaning ichki tarkibi tovar-yuk xatlarida ko‘rsatilgan tovarlarning nomi va miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarga mos bo‘lsa, Ijrochi Buyurtmachi tomonidan qayd etilgan biror-bir tavofutlar uchun javobgar bo‘lmaydi.
- Buyurtmachi tomonidan bir tomonlama tuzilgan shikoyat dalolatnomasi posilkalarning har qanday ichki tarkibining yo‘qolishi (yetishmasligi) yoki shikastlanishi (buzilishi) to‘g‘risida munosib dalil sifatida tan olinmaydi. Ijrochining shikoyat dalolatnomasini tuzishdan asossiz ravishda bosh tortgan holati bundan istisnodir.

Agar Buyurtmachi va Ijrochi o‘rtasida tuzilgan qo‘shimcha shartnomada boshqacha ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, 10 kunlik muddat tugagandan so‘ng, agar Ijrochiga bog‘liq bo‘lmagan biron sababga ko‘ra, Buyurtmachiga Jo‘natmani qaytarib berish imkoni bo‘lmasa, Buyurtmachidan qo‘shimcha ko‘rsatmalar kelib tushmasa va Oluvchi Jo‘natmani qabul qilmagan bo‘lsa, topshirilmagan Jo‘natma BTS-ning yetkazib berish joyidagi punktida pullik vaqtinchalik saqlashga o‘tkaziladi. Ijrochi bu haqda Buyurtmachini xabardor qiladi (yukxatida ko‘rsatilgan bog‘lanish raqamlariga SMS yuborish, telefon qilish orqali yoki boshqa usulda). Saqlash BTS-ning yetkazib berish joyidagi punktiga kelgan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida amalga oshiriladi.

Belgilangan saqlash muddati tugagandan so‘ng, topshirilmagan Jo‘natma “topshirilmagan Jo‘natmalar” holatida Buyurtmachidan qo‘shimcha ko‘rsatmalar olinmaguncha arxivga o‘tkaziladi. Arxivda topshirilmagan Jo‘natmalarni vaqtincha saqlash Ijrochi tomonidan arxivga tushgan kundan boshlab olti oy davomida amalga oshiriladi. Topshirilmagan Jo‘natmalarni arxivda vaqtincha saqlash muddati quyidagi hollarda qisqartirilishi mumkin:

- Jo‘natmaning tarkibi ma’lum bo‘lsa (qadoqni ochmasdan) va tarkibining yaroqlilik muddati arxivda saqlash standart muddatidan qisqa bo‘lsa, bunday holda, arxivda saqlash muddati Jo‘natmani yaroqlilik muddatiga teng bo‘ladi;
- Buyurtmachi yozma ravishda Jo‘natmani kelgusida qabul qilishdan voz kechganda. Bunday holda, Jo‘natma keyingi kundan boshlab utilizatsiya (yo‘q qilinishi) mumkin;
- Saqlash davom etishda jop’natmaning tarkibi Ijrochi xodimlarining hayoti va sog‘lig‘iga, bino va jihozlarining yaxlitligi, xavfsizligi va sanitariya me’yorlari uchun xavfli bo‘lsa, bunday holda, Jo‘natma imkon qadar tezroq utilizatsiya qilinishi mumkin.

Belgilangan muddat tugagandan so‘ng, topshirilmagan Jo‘natmalarga nisbatan quyidagi choralar qo‘llaniladi:

- moddiy boyliklar Ijrochi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda sotiladi va Ijrochining xarajatlari qoplangandan so‘ng, sotishdan tushgan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti foydasiga o‘tkaziladi;
- hujjatlar, davlat belgilari ularni bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga topshiriladi;
- yozishmalar va hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan boshqa narsalar tegishli dalolatnoma tuzish bilan utilizatsiya qilinadi.

Ijrochining aybi bo‘lmagan taqdirda, Buyurtmachi Ijrochiga Jo‘natmani boshqa manzilga yuborish, saqlash, qaytarish va uni qayta yetkazib berish yoki utilizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni Tarif Kartasiga muvofiq to‘lash majburiyatini oladi.

## 12. Hujjatlar

Ijrochi, Buyurtmachi, Jo’natuvchi, Oluvchilarning vakillari o‘zlarining elektron pochta manzillaridan bir-birlariga majburiyatlarini bajarish masalalari to‘g‘risida elektron yozishmalar olib borish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasi 4-qismga muvofiq, bunday elektron yozishmalar yozma asli kuchiga ega va ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan sud ishlarida tegishli dalil sifatida qo‘llanishi mumkin.

Buyurtmachining so’roviga binoan Ijrochi Jo‘natma yetkazib berilgandan so‘ng, Oluvchining imzosi qo‘yilgan BTS-yukxatini (elektron shaklda) yoki Jo‘natmani qabul qilish fotohisobotini taqdim etish majburiyatini oladi. Bunday holda, so‘rovning sanasi yetkazib berilgan kundan boshlab 6 (olti) oydan oshmasligi kerak.

### 13. Shikoyat-da’vo ishlari

Shikoyat-da’vo ishlari ularni amalga oshirish paytida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan qoidalar va tartiblarga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar ushbu Shartlar yoki shartnoma buzilgan bo‘lsa:

1. BTS vakili va Oluvchi (yoki uning vakili) belgilangan shakldagi shikoyat dalolatnomasini rasmiylashtiradilar (Ijrochining http://bts.uz/uz/hujjatlar/ veb-saytida mavjud);
2. Oluvchi (yoki uning vakili) BTS yukxatini “E’tiroz bilan qabul qilingan” belgisi bilan (elektron yoki qog‘oz shaklida) imzolaydi;
3. Shikoyat dalolatnomasiga qo‘shimcha ravishda, BTS vakili, agar mavjud bo‘lsa, Jo‘natmaga yetkazilgan zararni fotohisobot bilan tasdiqlaydi.
4. Shikoyat dalolatnomasi javobgarga uch kun ichida shikoyat kiritish uchun asos hisoblanadi. Shikoyat yozma buyurtma xat orqali yuborilishi yoki javobgarning vakiliga imzolatib topshirilishi mumkin.
5. Javobgar tomonidan shikoyat 15 ish kuni ichida ko‘rib chiqilishi lozim. Agar e’tiroz talablari javobsiz qoldirilsa yoki rad etilsa, ish Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga yuboriladi.

## 3-BOB EKSPRESS POCHTA

### 1. Xizmatning tavsifi

**“Ekspress-pochta”** - bu Jo‘natmalarni O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab BTS ofisidan ofisigacha yer usti transportida yetkazib berish xizmati:

- og‘irligi 20 kg gacha yoki
- posilka o‘lchamlari yig‘indisi 200 sm gacha va/yoki maksimal o‘lchami (gabariti) 100 sm dan oshmaydigan.

### 2. Jo‘natmalarni qabul qilish va rasmiylashtirish

Buyurtmalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri BTS ofislarida Jo‘natmalarni qabul qilish paytida, BTS ofislarining ish jadvaliga qarab (1-bob, 4-bandiga qarang) rasmiylashtiriladi. Shuningdek, buyurtmalar bevosita kuryerni chaqirish orqali ham (7-bob, 2-bandga qarang), BTS Space dasturidagi shaxsiy kabinetda, @btsrobot orqali ham rasmiylashtirish mumkin.

Ba'zi BTS ofislari faqat pochta jo'natmalari va kichik yuklar (50 kg gacha) bilan ishlash uchun mo'ljallanganligi sababli, Buyurtmachi BTSning muayyan idoralarida yuk jo'natmalarini (50 kg dan ortiq) qabul qilish va etkazib berish imkoniyatini oldindan kelishishi kerak.

## 4-BOB YIG‘MA YUKLARNI TASHISH XIZMATLARI

### 1. Xizmatning tavsifi

**Yig‘ma yuklarni tashish (LTL-tashish)** - bu Jo‘natmalarni O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab BTS ofisidan ofisigacha yer usti transportida yetkazib berish xizmati:

- og‘irligi 20 kg dan ortiq bo‘lsa yoki
- Posilka o‘lchamlari yig‘indisi 200 sm dan ortiq va/yoki maksimal o‘lcham (gabarit) 100 sm dan oshsa.

### 2. Jo‘natmalarni qabul qilish va rasmiylashtirish

Jo’natmalarni qabul qilish va rasmiylashtirish BTSning Markaziy Mintaqaviy ofislarida ish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi (1-bob,4-bandga qarang). Shuningdek, buyurtmalar bevosita kuryerni chaqirish orqali ham (7-bob, 2-bandga qarang), BTS Space dasturidagi shaxsiy kabinetda, @btsrobot orqali ham rasmiylashtirish mumkin.

# 5-BOB XALQARO POCHTA

## 1. Xizmatning tavsifi

**"Xalqaro pochta" -** Jo‘natmalarni BTS ofisidan (O‘zbekiston) chet eldagi Oluvchiga yetkazib berish va/yoki olib kelish xizmati.

## 2. Jo‘natmalarni qabul qilish va yetkazib berish (topshirish)

BTS yuk xatini qabul qilishida va to'ldirishda, jo'natuvchi tomonidan o'z qo'li bilan to'ldirilgan BTS xalqaro yuk xati ham talab qilinadi (6-ilova Xalqaro BTS yuk xatigaqarang).

Buyurtmachi/jo'natuvchi to’liq xizmat ko'rsatish uchun barcha kerakli hujjatlarni taqdim etishi lozim. Agar Ijrochi bojxona qoidalariga rioya qilish uchun zarur hujjatlar yo‘qligi sababli yetkazib berishni amalga oshira olmasa, Ijrochi bu haqida Buyurtmachiga xabar beradi. Agar vaziyat 21 kalendar kun ichida tuzatilmasa, Ijrochi Buyurtmachining xohishiga qarab, Buyurtmachiga/Jo’natuvchiga Jo‘natmani qaytarib berishga yoki Buyurtmachining hisobidan Jo‘natmani utilizatsiya qilishni tashkil qilishga haqlidir.

## 3. Jo‘natmalarni yetkazib berish muddatlari

Xalqaro Jo’natmalar Ijrochi tomonidan Tarif kartasida ko’rsatilgan muddatlarda yetkazib beriladi.

Jo‘natma bosib o‘tadigan mamlakat(-lar)ida xizmatning bajarilishiga ta’sir qiladigan yengib bo‘lmas kuchlar tufayli yuzaga keladigan sharoitda yetkazib berish muddati ushbu holatlarga muvofiq oshirilishi mumkin.

## 4. Jo’natmani qaytarish yoki yetkazish adresini o’zgartirish

Qabul qilishdan bosh tortish, Jo'natmani yetkazib bermaslik va h.k. vaziyatlarda, Tomonlar keyingi harakatlar to'g'risida kelishib oladilar. Agar Xalqaro pochta jo'natmalarini qaytarish yoki yetkazib berish manzilini o'zgartirish zarur bo'lsa, qo'shimcha xizmatlarning narxi alohida muhokama qilinadi.

# 6-BOB E-COM XIZMATLARI

## 1. Xizmatning tavsifi

**E-COM –** elektron tijorat bilan shug’ullanuvchilar uchun kompleks xizmatlar to‘plami, ulardan asosiylari quydagilar:

- Ekspress pochta yoki yig’ma yuklarni tashish;
- Kuryerlik xizmatlari;
- Jo’natma qiymatini e’lon qilish;
- Tovar uchun to‘lovlarni qaytarish (ТНП “Ustama to’lov” optsiyasi);
- Rad etilgan tovarlarni qaytarish;
- Tovar Komplektni (to’liqligini) tekshirish;
- Jo‘natmani mas’uliyatli saqlash;
- Foto-hisobot;
- Qadoqlash materiallari;
- Tomonlarning kelishuviga ko‘ra boshqa xizmatlar.

E-COM xizmatlari yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish shartnomasi imzolangan holda taqdim etiladi.

## 2. Buyurtmani rasmiylashtirish

Tovarlarni yetkazib berish to’g’risidagi buyurtma avtomatlashtirilgan usulda BTS Space bilan API-ga ulanish orqali yoki BTS Space-dagi shaxsiy kabineti orqali taqdim etiladi. Buyurtmachi buyurtma topshirishda BTS Yukxatini chop etadi va posilka (tovar)ga biriktiradi. BTS Yukxatini to'ldirishda Buyurtmachi mahsulotning shtrix-kodini yoki uning artikulini Yukxatning maxsus maydonida ko'rsatishi shart.

Buyurtmachi “Ustama to’lov”(ТНП) optsiyasiga buyurtma berganda, buyurtmani rasmiylashtirishda, Buyurtmachi Ijrochiga “Ustama to’lov”(ТНП) to‘lovchisiga beriladigan kassa chekida ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni (mahsulot/xizmatning nomi, mahsulot/xizmatning har bir birligining narxi, QQS stavkasi hajmi) topshirishi shart. Ko‘rsatilgan ma’lumotlar taqdim qilinmagan yoki noto‘g‘ri/nomunosib ma’lumotlar taqdim etilgan taqdirda Buyurtmachining o‘zi javobgar bo‘ladi.

Arizalar Ijrochi tomonidan faqat Buyurtmachi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan taqdirda (agar Tomonlar boshqacha kelishuvga ega bo'lmasalar) bajarilishi uchun qabul qilinadi.

### 3. Jo‘natmalarni yetkazib berish (topshirish)

Tovarlarni topshirish Buyurtmachi tomonidan tanlangan xizmatlar va optsiyalarga, shuningdek Tomonlar kelishgan boshqa kelishuvlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ijrochi Oluvchining (tovarlar xaridorining) oldida posilkaning tarkibi, uning sifati, funktsionalligi uchun javobgar emas.

Ijrochi mahsulot, uning xususiyatlari, funktsiyalari va kafolatlari to'g'risida, agar tomonlar boshqacha kelishuvga ega bo'lmasa, ma'lumot bermaydi.

“Ustama to’lov”(ТНП) optsiyasida Ijrochi Oluvchidan to'lovni olgandan keyingina Oluvchiga posilkani (tovarlarni) beradi. Agar Oluvchi tovarlar uchun to'lashdan bosh tortsa yoki tovarlarni ochgandan keyin to'lashni qat’iy qaror qilsa, Ijrochi tovarni taqdim qilishni rad etishga haqlidir (agar tomonlar boshqacha kelishuvga ega bo'lmasalar).

Rad etilgan E-COM tovarlari BTS ofisida 7 kun davomida saqlanadi, so’ng esa quyidagi operatsiyalarga beriladi:

- Mas'uliyatli saqlash;
- Jo’natma Oluvchisining o'zgartirish;
- Jo’natmani boshqa ofisga yo'naltirish;
- Buyurtmachiga qaytarish.

Buyurtmachi tomonidan tovarlarga ko'rsatmalar bo'lmasa, Jo'natma yetkazib berilmagan sifatida rasmiylashtiriladi (Rad etilgan, topshirilmagan va yetkazib berilmagan Jo‘natmalariga qarang).

### 4. Ustama (tovar uchun) to’lovlarni qaytarish

Oluvchidan olingan ustama to’lovlari Ijrochi tomonidan yig'iladi va keyinchalik Tarif Kartasida ko'rsatilgan muddatlarda (agar tomonlar boshqacha kelishuvga ega bo'lmasa) Buyurtmachining hisob raqamiga o'tkaziladi.

### 5. Tovar va to’lovlarning monitoringi

Ijrochi buyurtmachiga kelishilgan muddat va tartibda barcha jo'natmalar holati to'g'risida to'liq ma'lumotlarni beradi (inventarizatsiya): joylashuvi, sotilish holati, to'lovning qaytarish va hk.

## 7-BOB KURYERLIK XIZMATLARI

### 1. Xizmatning tavsifi

**Kuryerlik xizmati** bu BTS ofisiga tashrif buyurmasdan Jo‘natmani yuborish yoki yetkazib berish imkoniyatini beradigan xizmatdir:

- Jo‘natmani Jo’natuvchidan qabul qilish va BTS ofisiga yetkazib berish yoki BTS ofisidan Oluvchiga yetkazib berish (Jo‘natmani bir shahardan ikkinchisiga tashishda);
- Bir shahar ichida qabul qilish va yetkazib berish (yetkazib berish boshqa shaharga olib borilmasdan amalga oshirilganda).

### 2. Buyurtmani rasmiylashtirish

Buyurtmalar quyidagi usullarda qabul qilinishi mumkin:

- 1230 qisqa raqamiga yoki +99871 2070809 telefoniga qo‘ng‘iroq qilish orqali (butun sutka davomida);
- @btsrobot Telergam-bot yoki BTS Space shaxsiy kabineti orqali (butun sutka davomida).

15:00 gacha kuryer orqali qabulga kelib tushgan jo'natmalar bo’yicha buyurtmalar kuryer tomonidan joriy kun hisobidan qabul qilinadi va yetkzib berishga jo’natiladi. Ko’rsatilgan vaqtddan keyin kelib tushgan buyurtmalar joriy yoki keyingi ish kuni hisobida keyingi ish kunida yetkazib berish boshlanishi bilan qabul qilinishi mumkin.

Buyurtma berishda, Buyurtmachi yukning og'irligi va o'lchamiga mos keladigan transportda yetkazib berish to'g'risida kelishib olish uchun jo’natmaning toifasi yoki vaznini xabardor qilishi shart. Odatda, Ijrochi pochta va posilkalarni qabul qila oladigan transport vositasini taqdim qiladi.(quyidagi jadvalga qarang).

| Jo’natma toifasi | Og’irligi, kg | Maksimal hajmi, sm | Oldindan tasdiqlash zarurati |
|---|---|---|---|
| pochta | 0 – 2 | 32 | Yo’q |
| Posilka | 2 – 20 | 100 | Yo’q |
| Standart yuk | 20 – 50 | 150 | Ha |
| Og'ir yuk | 50 – 100 | 200 | Ha |
| Juda og'ir yuk | 100 – 1000 | 450 | Ha |

Shu tarzda olingan buyurtmalar to‘liq qonuniy kuchga ega. Tomonlar Ijrochining elektron tizimidagi bunday buyurtmaning bosma shakli yozma asl nusxasi kuchiga ega bo‘lishini va Tomonlar tomonidan sud ishlarini yuritish jarayonida munosib dalil sifatida foydalanishlari mumkinligini tan oladilar va tasdiqlaydilar.

## 3. Ish jadvali

Ijrochi ish kuni davomida kuryer orqali jo'natmalarni soat 9:00 dan 18:00 gacha qabul qiladi yoki yetkazib beradi. Shu bilan birga, Ijrochi sutka davomida kuryerlik xizmatlarini taqdim etishi mumkin.

## 4. Jo‘natmalarni qabul qilish

Jo‘natma BTS kuryerining kelishigacha tayyorlab qo‘yilishi kerak, ya’ni uning barcha posilkalari bir joyda bo‘lishi kerak. Ijrochining kuryeri Jo’natuvchining manzilida o‘tkazadigan vaqti ko‘pi bilan 15 daqiqani tashkil qiladi.

Ijrochining vakili va transport vositasi uchun Jo’natuvchi/Oluvchi Jo‘natmani yuklash/tushirish joyiga kirish imkonini ta’minlashi shart.

Ijrochi kuryeri 15 daqiqadan so'ng jo'natuvchining manzilini tark etish huquqiga ega bo’ladi va buyurtmachiga “bo'sh yurish” shaklida qo’shimcha to’lovi hisobi beriladi, agar Jo’natuvchi ushbu umumiy shartlarni buzgan hollarda, masalan,:

- Jo’natma tayyor bo’lmasa;
- Jo’natuvchi shaxsini aniqlashning imkoni yo'q bo’lsa;
- jo'natuvchi xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan yuk tashish hujjatlarni taqdim etmasa;
- Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasida oldindan kelishuv bo'lmaganligi sababli, yukning og'irligi va o'lchamlari avtomobilga yuklanish imkoniyatidan oshib ketsa.

## 5. Jo‘natmalarni yetkazib berish (topshirish)

Jo‘natma Oluvchiga kuryer orqali yetkazib berilishida, quyidagi sabablarga ko‘ra jo’natmani Oluvchiga yetkazib berishni/topshirishni imkoni bo‘lmagan holatlar bo‘lishi mumkin:

- BTS yukxatida Oluvchining noto‘g‘ri yoki mavjud bo‘lmagan manzili ko‘rsatilgan bo‘lishi (masalan, haqiqiy manzil o‘rniga, yuridik manzil ko‘rsatilgan, Oluvchi boshqa manzilga ko’chib ketgan);
- Oluvchining ko‘rsatilgan manzilda yo‘qligi (yoki Oluvchi o‘z shaxsini tasdiqlay olmasligi);
- BTS Yukxatida ko’rsatilgan telefon raqami orqali Oluvchi bilan bog’lanib bo’lmasligi;
- Oluvchi Jo‘natmani qabul qilishdan bosh tortishi va hokazo.

Bunday holda, kuryer:

- Oluvchini ko'rsatilgan manzilda topish va bog’lanish uchun barcha choralarni ko'radi, agar zarurat bo'lsa, Oluvchining BTS Yukxatida ko'rsatilgan manzil bo’yicha kutadi (jami bo’lib 15 daqiqadan o’rtiq emas) ;
- Jo’natuvchini BTS Yukxatida ko’rsatilgan telefon raqami orqali xabardor qiladi, yetkazib berishning iloji yo'qligi sababini xabar qiladi va buyurtmachi bilan keyingi harakatlarni muvofiqlashtiradi. Agar harakatlarni bajarilishi 15 daqiqadan oshmasa yoki qo'shimcha to'lovlarni talab qilmasa (masalan, Yukni boshqa manzilga yetkazib berish qo’shimcha to’lovni talab qiladi) ushbu harakatlarni kuryer amalga oshirishi mumkin;
- Agar Buyurtmachi bilan harakatlarni kelishish imkoni bo'lmasa, jo'natma oluvchiga eng yaqin bo'lgan BTS ofisida talab qilib olinguncha qoldiriladi. Yoki Tarif kartasiga muvofiq jo‘natmani oluvchiga yetkazib berish bo‘yicha kurerlik xizmati uchun qo‘shimcha buyurtma beriladi.

# 8-BOB YUKLARNI TASHISH XIZMATLARI

## 1. Xizmatning tavsifi

**Yuk tashish xizmati (FTL-tashish)** - bu buyurtmada belgilangan yoʻnalish boʻyicha bitta Buyurtmachi tomonidan transport vositasiga toʻliq yoki qisman yuklash bilan “eshikdan eshikkacha” yetkazib beriladi.

## 2. Buyurtmani rasmiylashtirish

Buyurtmachi, xizmatlar koʻrsatilishidan (yuklash kunidan) kamida bir kun oldin, Tashuvchiga quyidagilar koʻrsatilgan elektron, yozma yoki ogʻzaki buyurtma yuboradi:

- Ijrochi tomonidan transport vositalarini yetkazish sanasi va vaqti;
- Joʻnatmalarni joʻnatish joylari (manzili, tashkiloti) va Joʻnatmalar yetkazib beriladigan joylari (manzili, tashkiloti);
- tashilayotgan Joʻnatmaning nomi, hajmi va ogʻirligi va oʻlchamlari toʻgʻrisidagi maʼlumot yoki transport uchun soʻralayotgan transport vositasining turi (Tashuvchi tomonidan taklif qilinganlardan);
- Joʻnatmalarni tashish, yuklash va tushirish boʻyicha boshqa qoʻshimcha talablar (izotermik, katta hajmli, sovutgichli, soyabonli transport va boshqalar).

Buyurtma Buyurtmachi tomonidan quyidagilar orqali yuboriladi:

- yuklarni tashish boʻlimining masʼul xodimiga qoʻngʻiroq qilish;
- elektron platformadagi shaxsiy kabinet orqali.

Tez buziladigan tovarlarni harorat rejimida tashishda Tashuvchi tashish paytida arizada ko'rsatilgan harorat rejimiga kafolat beradi.

## 3. Ish jadvali

Avtomobillarni yetkazib berish, Buyurtmachi tomonidan belgilangan har qanday vaqtda, bayaram kunlaridan tashqari, (sutkasiga 24 soat) amalga oshiriladi.

## 4. Joʻnatmalarni qabul qilish (yuklash) va tushirish

Ijrochi transport vositasini Buyurtmachining talablariga muvofiq yetkazib beradi.

Avtotransport vositasi kelgan paytdan boshlab, Jo’natuvchiga/Oluvchiga Joʻnatmani yuklash yoki tushirish uchun koʻpi bilan 3 soat vaqt ajratiladi. Belgilangan vaqtdan oshib ketgan taqdirda, Buyurtmachi Tarif kartasiga muvofiq transport vositasining toʻxtab turgani uchun jarima toʻlaydi.

Buyurtmachi Joʻnatma tashish tugagandan soʻng, Tashuvchiga yuklangan Joʻnatma toʻgʻrisida toʻliq maʼlumotni yozma ravishda taqdim etadi. Tegishli hujjatlar olinmaguncha tashishni boshlash mumkin emas.

Yuk barcha qadoqlash standartlarga muvofiq qadoqlangan holdagina Tashuvchi yukning mexanik/jismoniy tashqi zararlanishidan xavfsizligi uchun javobgar bo’ladi. Agar yuk noto'g'ri/nomuvofiq qadoqlangan bo'lsa va yuk ortish normalariga rioya qilmasdan transportga yuklangan bo'lsa, Tashuvchi yukning tashqi omillardan, yukga mexanik va jismoniy ta'sirlardan xavfsizligi uchun va uning keyingi zarari uchun javobgar emas.

Buyurtmachi Joʻnatmani yuklash va tushirish, yoki tashish paytida transport vositasiga yetkazilgan zarar, shikast uchun, oʻz mablagʻlari hisobidan bartaraf etish yoki tuzilgan dalolatnomaga muvofiq tiklash xarajatlarni qoplash bilan javobgar boʻladi.

Transportga yuklashda Buyurtmachi Tashuvchi vakili (Haydovchi, Ekspeditor) uchun yukni tushirish va tushirish jarayonini tartibga solish imkoniyatini yaratishi kerak. Bu yukning bir o'qga og'irligini to'g'ri hisoblashni va yukni tashish paytida yanada xavfsizligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar Buyurtmachi yoki uning vakillari Tashuvchi vakiliga bunday imkoniyatni taqdim qilmasa yoki yuk ortish va tushirish jarayonida uning talablaridan bosh tortsa, Tashuvchi transportning maksimal yuk ko'tarish qobiliyatidan oshib ketganligi va tashish paytida yuk sozligini va xavfsizlikni buzganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

Buyurtmachi buyurtma qilingan transportni texnik plastinkada ko'rsatilganidan yuk ko’tarish chegirmasidan ortiqcha yuklamasligi kerak. Agar transportning haddan tashqari yuklanishi vakolatli organlar tomonidan aniqlangan bo'lsa, barcha xarajatlar va jarimalar Buyurtmachi tomonidan to'lanadi.

Buyurtmachi kimyoviy vositalarni tushirgandan keyin transport vositasini sanitariya-gigienik ishlov berish (dalolatnoma boʻyicha) yoki tozalash (oʻz mablagʻlari hisobiga va oʻzining kuchlari bilan) uchun xarajatlarni qoplaydi.

Tashuvchi Buyurtmachi/Jo’natuvchi tomonidan taqdim etiladigan tovar yukxati boʻyicha tovar-transport yukxatlarini (TTYu) rasmiylashtiradi.

Tashuvchi oʻz reestriga amalga oshirilayotgan tashishni kiritadi va unda Buyurtmachini, transport vositasini, yoʻnalishini, shartnoma summasini va qoʻshimcha maʼlumotli izohlarni qayd etadi.

Buyurtmachi Oluvchining manzilini notoʻgʻri koʻrsatgan boʻlsa, Buyurtmachi qoʻshimcha koʻrsatmalar beradi va qoʻshimcha xarajatlarni oʻz zimmasiga oladi.

Yuk tashish bo'yicha hujjatlar rasmiylashtirilgan va transportga yuklangan o'rindiqlar soni uchun tovarlarning dastlabki hisob-kitobi Tashuvchining vakili (Haydovchi, ekspeditor) ishtirokida amalga oshirilgan taqdirda, Tashuvchi yuklarning miqdori uchun javobgardir. Yuk paketlar / qutilar / qaodqlar butligi, buzilish belgilari bo'lmasligi sharti bilan va ochilmaganligi holda Tashuvchi yukning ichki ichki qismi uchun javobgar emas. Muhrlangan yuklarni tashishda, agar muhr va butligi buzilmagan bo'lsa, Tashuvchi tovarlar miqdori uchun javobgar bo'lmaydi.

### 5. Yuklarni tashish

Tashish xavfsizligi va butligini taʼminlash uchun Buyurtmachi transport vositasi haydovchisi bilan shartli ravishda oldindan kelishilgan holda Joʻnatmalarni toʻgʻri qadoqlanishi, yuklanishi va mustahkamlanishini taʼminlash uchun javobgardir. Buyurtmachi Joʻnatmani notoʻgʻri yuklashi yoki mustahkamlanishi sababli tashish paytida yetkazilgan zarar uchun Ijrochi va uchinchi shaxslar oldida javobgar boʻladi.

Ijrochi Joʻnatmaning xavfsizligi va uni Oluvchiga oʻz vaqtida yetkazib berish uchun Tomonlar oʻrtasida tuzilgan Shartnomaga muvofiq javobgardir.

## 9-BOB BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 1. Buyurtmachining huquqlari

Buyurtmachi xizmatlarning lozim darajada bajarilmaganligi yuzasidan eʼtirozi boʻlgan taqdirda, Ijrochiga yozma yoki elektron shaklda, belgilangan daʼvo tartibida, tuzilgan shartnomaga muvofiq murojaat qilishga haqlidir.

### 2. Buyurtmachining majburiyatlari

Buyurtmachi Jo’natuvchi va Oluvchi tomonidan Shartnoma Shartlari, Tarif kartasi va Qoidalarning Jo’natuvchi va Oluvchiga tegishli talablari bajarilishini taʼminlashi shart.

Buyurtmachi davlat organining qarori bilan Ijrochiga nisbatan qoʻllanilgan, Buyurtmachining yetkazib berish toʻgʻrisida notoʻgʻri va/yoki toʻliqsiz boʻlgan maʼlumotni taqdim etganligi sababli yuzaga kelgan qoʻshimcha xarajatlari yoki zararlarini, shu jumladan, har qanday majburiyat summasini toʻliq hajmda va Ijrochining birinchi talabi bilan qoplanishi uchun javobgardir

Buyurtmachi quyidagilarga kafolat beradi:

- Buyurtmada va BTS Yukxatida Joʻnatma tarkibini, Joʻnatmani qabul qilish/yetkazib berish manzilini, Joʻnatmaning ogʻirligi va hajmini toʻgʻri va aniq koʻrsatishi va BTS maʼlumotnomasini toʻliq toʻldirishini;
- Ushbu Shartlarning 2-bobida koʻrsatilgan qoidalarni bajarishini;
- Posilkalarning ichida taqiqlangan narsalar mavjud emasligini (2-Ilovaga qarang);
- BTS Yukxati raqami va unda koʻrsatilgan maʼlumotlar xizmatlarni koʻrsatishda ishtirok etmaydigan uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligini. Buyurtmachiga BTS yuk xati haqidagi ma'lumot uchinchi shaxslar tomonidan ushbu jo'natma (uni tashish, xizmatlar ko’rsatish narxi, saqlash va h. k.) bo'yicha barcha ma'lumotlarni olish uchun yetarli va etarli asos bo'lishi mumkinligi haqida xabar berilishini;
- Jo’natuvchining Joʻnatma bilan yuborilgan hujjatlari ushbu Joʻnatmaning posilkasidan biriga ilova qilinadi yoki ushbu Joʻnatmaning bir qismi sifatida alohida posilka sifatida yuboriladi. Ikkala holatda ham bunday posilka quyidagi yozuv bilan belgilanishi kerak: "Hujjatlar bu yerda";
- Agar nazorat qiluvchi organlar vakillarida Joʻnatma toʻgʻrisida berilgan maʼlumotlarning ishonchliligiga shubha tugʻilsa, Buyurtmachi Joʻnatma turgan joydagi idoraga oqilona (4 ish kunidan koʻp boʻlmagan) muddatda qoʻshimcha hujjatlar, hujjatlarning asl nusxalari yoki ularning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxalarini taqdim etadi;

- Jo‘natmani Ijrochiga topshirish/(Jo‘natmani qabul qilish uchun taqdim etilgan) transport vositasiga yuklarni yuklash, shuningdek tegishli hujjatlarni imzolash, Ijrochining vakili kelganidan va Jo’natuvchi bilan uchrashgandan boshlab 15 daqiqa ichida boshlanadi; Ijrochi Jo’natuvchi tomonidan yuklarga ilova hujjatlarni to‘ldirish miqdori, to‘g‘riligi va to‘liqligi uchun javobgar emas. Agar ushbu vaqt ichida Jo’natuvchi Jo‘natmani topshirish va zarur hujjatlarni tayyorlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirmagan bo‘lsa, Ijrochining vakili Jo’natuvchining manzilini tark etishga haqli;
- Jo‘natma yetkazib berilgandan so‘ng, Ijrochining vakili Oluvchiga murojaat qilgan paytdan boshlab 15 daqiqa ichida Jo‘natma qabul qilinadi yoki transport vositasidan tushiriladi, shuningdek tegishli hujjatlar, shu jumladan "Jo’natuvchi hujjatlarini qaytarish" optsiyasi asosida Buyurtmachiga/Jo’natuvchiga taqdim etiladigan hujjatlar imzolanadi. Ijrochi Oluvchining hujjatlarni to‘ldirish miqdori, to‘g‘riligi va to‘liqligi uchun javobgar emas. Agar ushbu vaqt ichida Oluvchi Jo‘natmani topshirish va zarur hujjatlarni tayyorlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirmagan bo‘lsa, Ijrochining vakili Jo’natuvchining manzilini tark etishga haqli;
- Ijrochining xizmatlari narxini hisoblashda Jo‘natmaning pulli og‘irligidan foydalanishga rozilik bildiradi (1-Ilovaga qarang);
- buyurtma qilingan asosiy xizmatlar, optsiyalar va qo‘shimcha to‘lovlar uchun to‘lovni Tarif Kartasiga yoki tomonlar o'rtasida kelishilgan alohida xizmatlar va / yoki xizmat ko'rsatish shartnomasida ilovada ko'rsatilgan tariflarga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlaydi;
- Ijrochini Jo‘natmani qayta manzillashtirish, saqlash, yo‘q qilish, qaytarish va qayta yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlarni (Ijrochining aybi bo‘lmagan taqdirda) Tarif Kartasiga muvofiq to‘lash majburiyatini oladi;
- Oldindan kelishilgan xarajatlarni to‘lanishini ta’minlaydi. Ijrochi Buyurtmachi tomonidan muddati o‘tgan qarzni to‘liq to‘lamaguncha, Jo‘natmani Oluvchiga topshirmaslik huquqiga ega;
- O‘zining manzili, bank ma’lumotlari, telefoni, faksi, elektron pochta manzili o‘zgarishi to‘g‘risida o‘zgartirilganidan keyin 5 kun ichida Ijrochiga xabar beradi;
- Yetkazib beriladigan posilkada Xavfli yuklar Deklaratsiyasini shartli ravishda to‘ldirishni talab etadigan buyumlar mavjudligi aniqlanganda, Ijrochi uni rasmiylashtiradi va keyin Buyurtmachiga xabar beradi. Ijrochi yetkazib berish muddatini uzaytirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Buyurtmachi xavfli yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirilmagani uchun jarima va Ijrochining deklaratsiyalash bilan bog‘liq xarajatlar summalarini to‘lash majburiyatini oladi.

Yuqoridagilardan tashqari, Buyurtmachi yuqoridagi boblarda ko‘rsatilgan talablarni bajarishi shart (2-bob - 8-boblarga qarang).

# 10-BOB IJROCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

## 1. Ijrochining huquqlari

Jo‘natmani qabul qilishni yoki yetkazib berishni rad etish, Jo‘natmani yo‘lda ushlab qolish, yetkazib berish vaqtini uzaytiriladi, Jo’natuvchini/Oluvchini ushbu Shartlar qoidalariga rioya qilmagan hollarda(2-bobga qarang)masalan:

- Jo‘natmada jo‘natishga taqiqlangan narsalar, moddalar va tovarlarning mavjudligida;
- Jo‘natmani qadoqlash Ijrochini xodimlarining sog‘lig‘iga va mol-mulkining yaxlitligiga, shuningdek boshqa Jo‘natmalarga xavf tug‘dirganda;
- Jo‘natma uchun Tomonlar o‘rtasida avval kelishilmagan tashish/yetkazib berishning maxsus shartlari talab qilinsa;
- Jo‘natmani tashish/yetkazib berish uchun maxsus ruxsatnomalarni talab qilsa;
- Jo‘natma Ijrochiga Shartlarda belgilangan muddatlardan kechroq topshirilgan bo‘lsa;
- Buyurtmachi/Jo’natuvchi tomonidan buyurtma yoki BTS yukxati noto‘g‘ri rasmiylashtirilishi va/yoki Oluvchiga yetkazib berish nazarda tutilgan bo‘lsa, Oluvchi to‘g‘risida bog‘lanish ma’lumotlari to‘liq taqdim etilmagan bo‘lsa;
- Ijrochining majburiyatlarini bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yengib bo‘lmas kuchlar ta’siridagi vaziyat yuzaga kelganda.

Belgilangan holatlarda yetkazib bermaslik yoki yetkazib berish muddatini buzish Ijrochining javobgarligini keltirib chiqaradigan buzilishlar deb hisoblanmaydi.

Buyurtmachi Jo‘natmasini noto‘g‘ri qadoqlanganligi sababli boshqa Buyurtmachilarning Jo‘natmalariga zarar yetkazilgan taqdirda Ijrochi Buyurtmachiga e’tiroz bildirishga haqlidir.

Ijrochi Jo’natma tarkibida Ijrochi bilan kelishishni talab qiladigan predmetlar bo’lsa, ammo Buyurtmachi tomonidan Ijrochi bilan kelishilmagan xolda tashishga berilgan bo’lsa, Ijrochi Jo’natmani o'z vaqtida yetkazib berish va xavfsizligi uchun javobgar emas.

O‘z majburiyatlarini bajarish uchun mahalliy va xorijiy sheriklarni jalb qilish. Bunday holda, Ijrochi Buyurtmachi oldida sheriklarning harakati (harakatsizligi) uchun barcha javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Buyurtmachi/Jo’natuvchidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun oldindan to‘lovni amalga oshirishni talab qilish.

Xizmatlar uchun to‘lov majburiyati bajarilguncha Buyurtmachining har qanday Jo‘natmasini ushlab turish.

## 2. Yetkazib berish shartlarini bajarmaganlik uchun javobgarlik

Yetkazib berish muddatlariga rioya qilmaslik uchun Ijrochi oshirilgan ravishda javobgar bo‘ladi.

Jo‘natmani Oluvchiga rejalashtirilgan yetkazib berish sanasidan kechroq yetkazib bergan (topshirgan) taqdirda, Ijrochining javobgarligi sifatida yetkazib berish muddati buzilgan butun Jo‘natmani yoki uning qismini yetkazib berish narxining 10% miqdorida jarima hisoblanadi. Jarima summasi Jo‘natmani qaytarib berish natijasida kelib chiqadigan yig‘imlar yoki summalarni (masalan, qadoqlash uchun to‘lovlar va boshqalarni) o‘z ichiga olmaydi.

Yetkazib berish muddatiga rioya qilish uchun Ijrochining oshirilgan javobgarligi har ikki tomon tomonidan imzolangan BTS bilan tuzilgan shartnomaning to‘liq versiyasi mavjud bo‘lgan taqdirda, Buyurtmachi tomonidan e’tiroz bildirish vaqtida uni Ijrochi oldida boshqa Jo‘natmalarni yetkazib berish uchun muddati o‘tgan qarzdorligi bo‘lmaganida, shuningdek, ushbu Shartlarning 2-bob va 9-boblari shartlari bajarilgan taqdirda yuzaga keladi.

Ijrochining oshirilgan javobgarligi har qanday yilning 15 dekabridan 31 dekabrigacha yetkazib berish uchun qabul qilingan Jo‘natmalarga taalluqli emas.

Jismoniy shaxslar oldida Ijrochi yetkazib berish muddatini buzganligi uchun har bir kechiktirilgan kun uchun yetkazib berish xizmati uchun to‘lovning 0,4% miqdorida, lekin ushbu xizmat uchun to‘langan summaning 10%dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda javobgar bo‘ladi.

## 3. Jo‘natmaning buzilishi yoki yo‘qolishi uchun javobgarlik

Ijrochi tashilgan Jo‘natmalarni qabul qilish paytidan boshlab to manzilga yetkazib berilgunga qadar, uning xavfsizligi uchun quyidagi miqdorda moliyaviy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi:

Qiymati e’lon qilinmagan Jo‘natmalarga:

1. Qiymati e’lon qilinmagan Jo‘natmaning yo‘qolishi yoki to‘liq shikastlanishi uchun - ushbu Jo‘natmani tashish uchun Buyurtmachi tomonidan to‘langan summaning ikki baravar miqdorida jarima.
2. Qiymati e’lon qilinmagan Jo‘natmaning bir qismi yetishmovchiligi yoki shikastlangani uchun Jo‘natmaning yetishmagan yoki shikastlangan qismining og‘irligiga mutanosib ravishda Buyurtmachi tomonidan to‘langan summaning ikki baravar miqdorida jarima.

Qiymati e’lon qilingan Jo‘natmalarga:

3. Qiymati e’lon qilingan va qiymati uchun ustama (to‘langan tarifdan tashqari to‘langan to‘lov)li Jo‘natmani yo‘qolishi yoki to‘liq shikastlanishi uchun – e’lon qilingan qiymat , shuningdek ushbu Jo‘natmani tashish uchun to‘langan summa miqdorida jarima.
4. Qiymati e’lon qilingan va qiymati uchun ustama (to‘langan tarifdan tashqari to‘langan to‘lov)li Jo‘natmani bir qismi yetishmovchiligi yoki shikastlangani uchun:
    a. e’lon qilingan qiymat summasini Jo‘natmani shikastlangan qismining sof og‘irligiga mutanosib ravishda jarima; yoki
    b. Agar Jo‘natma tarkibining ro‘yxati mavjud bo‘lsa - ro‘yxatda ko‘rsatilgan, shikastlangan e’lon qilingan qiymati miqdorida. Bunday holda, tarkibning e’lon qilingan qiymati Jo‘natmani Buyurtmachidan qabul qilishda rasmiylashtirilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymatga muvofiq bo‘lishi shart.

## 4. Javobgarlikdan ozod qilish va yengib boʻlmas kuchlar tufayli yuz bergan vaziyatda majburiyatlarni bajarmaganlik

Ijrochi yetkazib berish muddatlarini buzganligi, Joʻnatmalarning yoʻqolishi va zarar yetkazilganligi uchun quyidagi hollarda javobgar boʻlmaydi:

- ushbu hodisalar yengib boʻlmas kuchlar tufayli yuz bergan (fors-major) vaziyat natijasida yuzaga kelganida;
- Joʻnatma davlat organlari (bojxona, nazorat punktlari, xavfsizlik xizmatlari va boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari) tomonidan koʻzdan kechirishga taqdim etilganda tekshirish jarayonida ularning qarori bilan olib qoʻyilganda. Shu bilan birga, Ijrochi Buyurtmachini bunday qarorlar toʻgʻrisida iloji boricha tezroq xabardor qilishni oʻz zimmasiga oladi;
- Buyurtmachi notoʻgʻri maʼlumotlarni koʻrsatgani sababli xato yetkazib berilishida yoki notoʻgʻri qadoqlanganligi yoki yuborilgan buyumlarning xususiyatlari tufayli Joʻnatmalarni shikastlanishi yuz berganida.

Ijrochi quyidagilar uchun javobgar emas:

- agar qoidabuzarlik Xizmat koʻrsatish shartlarini bajarish bilan bogʻliq boʻlmasa (Oluvchiga yuborilgan tovarlar va buyumlarning sifati, hajmi, assortimenti nomuvofiqligi va boshqalar);
- Buyurtmachining boy berilgan foydasi, bilvosita zarari yoki olinmagan foydasi uchun, ularning kelib chiqishi qanday boʻlishidan qatʼiy nazar.

Tomonlarning har qaysinisining oʻz majburiyatlarini toʻliq yoki qisman bajarolmasligiga olib keladigan yengib boʻlmas kuchlar taʼsiridagi (fors-major) vaziyat, yaʼni: yongʻin, tabiiy ofatlar, pandemiya, urush, har qanday tabiatdagi harbiy operatsiyalar, blokadalar yoki Tomonlarga bogʻliq boʻlmagan boshqa shart-sharoitlar yuz belganida ushbu Shartlar boʻyicha majburiyatlarni bajarish, ushbu holatlar davom etadigan muddatga mutanosib ravishda keyinga qoldiriladi.

Agar ushbu holatlar 3 (uch) oydan koʻproq davom etsa, Tomonlarning har biri Shartnoma boʻyicha majburiyatlarni keyingi bajarilishidan voz kechish huquqiga ega boʻladi va bu holda Tomonlarning hech biri boshqa Tomondan ehtimolli zararni qoplashni talab etish huquqiga ega boʻlmaydi.

Majburiyatlarni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan Tomon boshqa Tomonni ushbu Shartnoma boʻyicha majburiyatlarning boshlanishi yoki bekor qilinishi toʻgʻrisida boshqa Tomonga imkon qadar xabardor qilishi lozim.

Ushbu holatlar sodir boʻlgan joyda vakolatli organlar tomonidan berilgan rasmiy bayonotlar (shu jumladan maʼlumotnomalar) fors-major holatlari va ularning davomiyligi toʻgʻrisida tegishli dalil boʻlib xizmat qiladi.

## 1-Ilova Og‘irlik va hajmni aniqlash. Hajmli va pullik og‘irlik tushunchasi.

Jo‘natmani Jo’natuvchidan qabul qilayotganda yoki uni BTS dispetcherlik idorasida qayta ishlashda Ijrochi o‘lchamlarni o‘lchaydi va posilkalarni tortadi. Posilkalarning o‘lchami, og‘irligi va hajmli og‘irligi va posilkaning pullik og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar Ijrochining dasturiy ta’minot bazasida aks ettiriladi va saqlanadi. Buyurtmachi Ijrochining dasturiy ta’minotidan posilka va Jo‘natmalarning hajmi va og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan xizmatlarning narxini tariflash uchun, shuningdek ularni qabul qilish va yetkazib berish vaqtida o‘lchamlari va og‘irligini aniqlash maqsadida foydalanishga rozilik beradi.

Posilka va Jo‘natmalarning hajmi va og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga norozi bo‘lgan Buyurtmachi, Jo’natuvchi, Oluvchi Ijrochi bilan kelishgan holda quyidagilarga haqlidir:

- Jo‘natmani qabul qilish va/yoki Ijrochining terminaliga yetkazib berishda, Jo‘natmaning og‘irligi va hajmini aniqlashda ishtirok etishga.
- Buyurtmachining ko‘rsatgan manzilida Jo‘natmani qabul qilish va/yoki yetkazib berishda, Jo‘natmani o‘lchash va tortish uchun o‘zining tegishli tarzda sertifikatlangan o‘lchov vositalarini taqdim etishga.

Jo‘natmani birgalikda o‘lchash va tortish natijalariga ko‘ra, tomonlar Jo‘natmaning hajmi va og‘irligi to‘g‘risida ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar. Agar bunday dalolatnoma tuzilmagan bo‘lsa, Jo’natuvchi/Oluvchi Ijrochining dasturiy ta’minotida Jo‘natmaning pullik og‘irligi u tomonidan yuborilgan/qabul qilingan Jo‘natmaning og‘irligiga mos kelishini tasdiqlaydi.




Posilkaning hajmli og‘irligi **O‘zbekiston Respublikasi xududida tashishda** quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\text{Hajmli og'irlik, kg} = \frac{\text{Bo'yi(sm) x Kengligi(sm) x Uzunligi(sm)}}{\mathbf{6000}}$$

Posilkaning hajmli og‘irligi **xalqaro tashishda** quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\text{Hajmli og'irlik, kg} = \frac{\text{Bo'yi(sm) x Kengligi(sm) x Uzunligi(sm)}}{\mathbf{5000}}$$

Og‘irlikning haqiqiy qiymati va hajm og‘irligining hisoblangan qiymatini taqqoslaganda eng yuqori ko‘rsatkich posilkaning pullik og‘irligi deb hisoblanadi.

Bir nechta posilkadan iborat Jo‘natmaning pullik og‘irligi har bir posilkaning pullik og‘irliklarini qo‘shish orqali hisoblanadi.

## 2-Ilova Tashish taqiqlangan  va kelishuvni talab qiladigam Jo‘natmalar ro‘yxati

### Tashish taqiqlangan buyum va moddalar RO‘YXATI

| Buyum va moddalar nomi | Mahalliy | Xalqaro va avia |
|---|---|---|
| **QUROLLAR VA ULARNING MULYAJI** | | |
| O‘q otar qurollar, signalli, pnevmatik, gaz qurollari, o‘q-dorilar, qirrali (shu jumladan uloqtirishli) qurollar, elektr toki uradigan qurilmalar va uchqun chiqaruvchi moslamalar, shuningdek o‘q otar qurollarning asosiy qismlari, yig‘ilmagan portlovchi moslamalar va o‘q-dorilar, shu jumladan yig‘ilmagan granatalar, snaryadlar va shunga o‘xshash boshqa narsalar va shuningdek, bunday qurilmalar va narsalarning mulyajlari (o‘xshatilgan qo‘g‘irchoqlari). (istisno - jo'natish Buyurtmachi bilan kelishilgan bo'lishi kerak bo'lgan suvenir va hunarmandchilik mahsulotlari) | Taqiqlangan | |
| **PUL BELGILARI** | | |
| O‘zbekiston Respublikasi banknotalari va chet el valyutasi | Taqiqlangan | |
| **ZARGARLIK BUYUMLARI** | | |
| Platina, oltin yoki kumushdan yasalgan buyumlar yoki ishlov berilmagan ko‘rinishdagi qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari va boshqa qimmatbaho predmetlarni (qiymatni e'lon qilish bilan) | Kelishuvga ko‘ra | Taqiqlangan |
| **MADANIY BOYLIKLAR** | | |
| Madaniy boyliklar va san’at asarlari (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Badiiy ekspertiza boshqarmasining ruxsatnomasi bilan) | Ruxsat berilgan | Kelishuvga ko‘ra |
| **TIRIK ORGANIZMLAR** | | |
| Tirik qushlar, kemiruvchilar, asalarilar, shilliq qurtlar, zuluklar va ipak qurtlari | Kelishuvga ko‘ra | |
| O‘simliklar va ularning urug‘lari | Kelishuvga ko‘ra | |
| **FARMATSEVTIK VA TIBBIY BUYUMLAR** | | |
| Dori vositalar, tibbiy mahsulotlar va tibbiy asbob-uskunalar | Kelishuvga ko‘ra | Kelishuvga ko‘ra |
| **XAVFLI** | | |
| Giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, psixotrop, kuchli ta’sir etuvchi moddalar | Taqiqlangan | |
| Biologik yoki kimyoviy xavf tug‘diradigan moddalar | Taqiqlangan | |
| Radioaktiv, portlovchi, zaharli, o‘yuvchi, tez yonuvchi va boshqa xavfli moddalar | Taqiqlangan | |
| O‘z xususiyatlari yoki qadog‘i tufayli Ijrochi xodimlari yoki oddiy aholi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan buyumlar, boshqa Jo‘natmalarni va jihozlarini ifloslantirishi mumkin bo‘lgan buyumlar | Kelishuvga ko‘ra | Taqiqlangan |
| Xavfli yuklar sifatida toifalanadigan (xavfli yuklarning har qanday toifasiga mansub) boshqa xavfli moddalar | Kelishuvga ko‘ra | Taqiqlangan |
| **AKKUMULYATOR BATAREYALAR** | | |
| Uskunada mavjud bo‘lgan va uskunadan alohida jo‘natiladigan litiyli elementlar yoki litiyli batareyalar. | Ruxsat berilgan | Taqiqlangan |
| **BOSHQALAR** | | |
| Odobsizlik yoki axloqsizlik xususiyatga ega buyumlar | Taqiqlangan | |
| Joriy va shaxsiy yozishma mazmunidagi hujjatlar, shuningdek, jo‘natuvchi va oluvchi bo‘lmagan shaxslar yoki ular bilan yashovchi shaxslar almashinadigan oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari va banderollar | Taqiqlangan | |
| Spirtli va tarkibida spirti bo‘lgan ichimlikalr | Taqiqlangan | |
| Kontrafakt yoki qalbaki buyumlar | Taqiqlangan | |
| Yetkazib borish mamlakatiga olib kirilishi yoki muomalasi taqiqlangan narsalar | X | Taqiqlangan |
| Tegishlicha o‘rovdagi bosma nashrlar va ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan hech qanday annotatsiyaga ega bo‘la olmaydigan, joriy yoki shaxsiy yozishma mazmunidagi hech qanday hujjatlarni ichiga ololmaydigan jo‘natmalar | Taqiqlangan | |
| Ijrochining fikriga ko‘ra tashish xavfsizligi yoki qonuniyligini ta'minlay bo‘lmaydigan boshqa buyum va moddalar. | Taqiqlangan | |

**Yuk tashish shartlariga muvofiq kelishuvni talab qiladigan jo'natmalar**

**RO’YXATI**

**Og'irlik va o'lchamlarda**




Qadoq va palletni hisobga olgan holda posilka (yuk) balandligi 100 sm dan oshadi




Qadoqni hisobga olgan holda jo'natma (yuk) uzunligi 180 sm dan oshadi




Qadoqni (A+B+C) hisobga olgan holda jo’natma(yukning) barcha tomonlarining uzunligi yig’indisi 300 sm dan oshadi




1 ta posilkaning og’irligi 100 kg dan oshadi

Harorat rejimiga rioya qilish zarurati.

Maxsus va davlat boji / bojxona rasmiylashtiruvi ostidagi xalqaro jo’natmalar.

## 3-Ilova Qadoqqa qo'yiladigan talablar

**Posilkalarning har xil turlari va toifalariga, shuningdek ichki tarkibining xususiyatlariga bog'liq qadoqlash talablari**

Ijrochi Buyurtmachidan/Jo'natuvchidan posilkalarni faqat qadoqlangan, tashish davomida ichki tarkibining saqlanganligini ta'minlaydigan va ichini ochib bo'lmaydigan holatda qabul qiladi. Posilkaning qadoqlanishi tashishning to'liq davomiyligida atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashi, tashish va yuklash/tushirish ishlarini bajarish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Posilkalarni tashish uchun tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- ichki tarkibning xususiyatlari, yetkazib berish muddatlari va mavsumlari;
- transport vositalarining yuk joylarida ma'lum harorat rejimlarini ta'minlash zarurati;
- ichki tarkibning xususiyatlari va uni qayta yuklashning to'g'ri usullari to'g'risida ma'lumot yetarli bo'lmagan yoki noto'g'ri bo'lgan taqdirda yuk ortish-tushirish ishlari paytida ichki tarkibni va yetkazib beruvchi transport vositasini shikastlanishi, odamlarga shikast yetkazish xavfi.

Posilka qadog'iga tegishli amallar (manipulyatsiya) belgilarini qo'llanishi shart (4-Ilova). Ichki qo'shimchalarga mos kelmaydigan yorliqlar va manipulyatsiya belgilari Jo'natuvchi tomonidan olib tashlanishi kerak. Posilkalarning belgilanishi muayyan mahsulot uchun normativ-texnik hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Posilkalarni himoyalangan transport qadoqlariga qadoqlash Ijrochi tomonidan Jo'natuvchining buyurtmasiga binoan Ijrochining terminalida qo'shimcha haq evaziga va faqat himoya transport qadoqlariga qadoqlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha texnik imkoniyatlariga ega bo'lgan BTS ofisining xizmat ko'rsatish zonasida amalga oshiriladi. Ofislar ro'yxati va transport vositalarini himoya qiluvchi qadoqlash turlari www.BTS.uz veb-saytida joylashtirilgan.

Jo'natuvchi quyidagi jadvalda tavsiflangan posilkalarni qadoqlash Qoidalariga rioya qilgan holda, o'z yuklarini mustaqil ravishda transport vositasida qadoqlashi mumkin.

Himoyalangan transport qadoqlari va manipulyatsiya belgilarining yo'qligi, shuningdek ichki tarkibning xususiyatlari, uning og'irligi, umumiy o'lchamlari yoki belgilangan standartlarga javob bermaydigan idishlar va qadoqlardan foydalanish oqibatlari uchun Jo'natuvchi javobgardir.

Ijrochi buzilmagan qadoq ichidagi ichki tarkibning xavfsizligi uchun javobgar emas va Buyurtmachi/Jo'natuvchi ushbu javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Ijrochi yetkazib berish uchun unga topshirilgan barcha turdagi posilkalar uchun Ijrochining o'zi foydalanadigan himoya transport qadoqlaridan biridan foydalanishni tavsiya etishga haqlidir. Shu bilan birga, Ijrochi Jo'natuvchi tomonidan tanlangan qadoqlashning ushbu hujjatda ko'rsatilgan talab va tavsiyalarga muvofiqligini baholamaydi.

Agar jadvalda ko'rsatilganlar ro'yxatiga kiritilgan posilkalarning ichki tarkiblari Ijrochiga himoya transport qadoqlarisiz topshirilsa, Ijrochi posilkalarni yetkazib berishni qabul qilishdan bosh tortishga yoki, agar Jo'natuvchi ushbu turdagi ichki tarkiblarning shikastlanishi/yo'qolishi bilan bog'liq tavakkalchilik uchun mas'uliyatni, Ijrochiga nisbatan e'tirozlash va da'volar kiritish huquqisiz to'liq o'z zimmasiga olishga rozilik bildirsa, Posilkani qabul qilishga haqlidir. Buyurtmachi/Jo'natuvchining roziligi posilkani Ijrochiga topshirish orqali ifodalanadi.

Himoya transport qadoqlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Palet taxtasi** - bu mo'rt va nostandart Jo'natmalarni tashish uchun mustahkam yog'och idish. Bunday yechim, masalan, qimmat tibbiy asbob-uskunalarni yetkazib berish zarur bo'lganda juda muhimdir.
2. **Yog'och panjara** - mo'rt, sinuvchan, katta o'lchamdagi va nostandart yuklarni tashish, ularni shikastlanishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan, bu yog'och karkas ko'rinishidagi qattiq posilka qadog'i.
3. Deformatsiyadan himoyalanishni talab qilmaydigan tovarlarni qadoqlash uchun **laminatlangan polipropilen qop**. Qoplash kichik posilkalarning to'kilishini oldini oladi va posilkalarni saqlashga yordam beradi.
4. **Havo-pufakchali o'ram** - bu mo'rt va qiriladigan ichki tarkiblarga mos keladigan, tashish paytida posilkaning ichki tarkibini qo'shimcha himoya qilish, amortizatsiya qilish yoki mahkamlash uchun mo'ljallangan yumshoq elastik materialdir.

5. **Karton quti** - qalin kartondan tayyorlangan har xil o‘lchamdagi qutilar ichki qo‘shimchalarni deformatsiya yoki yo‘qolishdan himoya qilish, to‘kilishini oldini olish uchun ishlatiladi va ichki tarkiblarni posilkalarga guruhlash uchun qo‘llanadi.

Quyida keltirilgan ichki tarkiblar uchun himoya transport qadog‘i bo‘lmagan taqdirda, qadoqlash nomuvofiq hisoblanadi:

| Yuk (ichki tarkib) turlari | Qadoq turi | Yuklarni qadoqlashga izohlar | Shartli yorliqlash |
|---|---|---|---|
| **Idishga qadoqlangan suyuqliklar** | | | |
| Moylar, ishlab chiqarish kimyoviy vositalar, bo‘yoqlar, aralashmalar, avtomobillar va uy-ro‘zg‘or uchun kimyoviy vositalar, laklar va h.k. | 1 yoki 2 | Idishlar rezina yoki qog‘oz tiqinli qopqoq bilan yopiladi, muhrlanadi va Jo’natuvchi tomonidan (karton, faner, plastmassa) qutilarga joylashtiriladi | “Yuqori qismi”, “Burib siljitmang” |
| **Qoplarga joylangan to‘qiluvchan materiallar va kukunlar** | | | |
| “Sochiluvchan” materiallar | 1, 3 | | |
| Kukunlar | 1, 3 | Germetik (havo o‘tkazmaydigan) va bardoshli plastik qoplardan foydalaniladi | |
| **Reklama uchun qurilmalar** | | | |
| Metall qurilmalar (stendlar, ustunlar, shtenderlar…) | 1 yoki 2 | | |
| Plastik, akril, shishadan yasalgan yoki tarkibida plastik, akril, shisha elementlar mavjud (hajmli harflar, yozuvlar, mediafasadlar, yorituluvchi qutilar, ustunlar ...) | 1 yoki 2 | Qo‘shimcha amortizatsiya materiallari qo‘llaniladi | Tarkibida shisha mavjud buyumlar “Ehtiyot bo‘ling”, “Oyna”,“Qirrasidan ko‘tarib burib siljitmang”, “Mo‘rt” yozuvlar bilan yorliqlanishi zarur. |
| **Maishiy texnika va elektronika** | | | |
| Yirik maishiy va iqlim texnikasi shu jumladan, zavod qadog’idagi: (muzlatgichlar, sovutgichlar, kulerlar, oshxona plitalari, ovqat pishirish plitalari, pechlar, kir yuvish mashinalari, kiyim quritgichlar, quritadigan shkaflar, idish-tovoq yuvish mashinalari, konditsionerlar, uy va ofis uchun iqlim texnikasi, suv isitgichlar, oshxona dudbo‘ronlari va boshqalar). | 1 yoki 2 | Ishlab chiqaruvchi, zavodning qadoqi qo’llaniladi - karton qadoq (qutilar). | “Ehtiyot bo‘ling”, “Qirrasidan ko‘tarib burib siljitmang”, “Yuqori qismi”. |
| Ofis jihozlari va elektronika shu jumladan, zavod qadog‘idagi: kompyuterlar, noutbuklar, printerlar, skanerlar, nusxa ko‘chirish moslamalari, fakslar, tizim bloklari, serverlar va boshqalar. | | | |
| Audio va video uskunalar shu jumladan, zavod qadog‘idagi: plazma va suyuq kristalli panellar, televizorlar va monitorlar, sun'iy yo‘ldosh (parabolik) antennalar, musiqiy markazlar, uy kinoteatrlari va boshqalar. | | | |
| O‘rta va kichik maishiy va ofis jihozlari va ularning ehtiyot qismlari (blenderlar, kofe | 4, 5 | Ishlab chiqaruvchi zavodning qadoqlari, mexanik | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| qaynatgichlar, kofe maydalagichlar, kofe mashinalari, sharbat chiqargichlar, multivarkalar, go‘sht maydalagich, mikroto‘lqinli pech, choynaklar, oshxona kombaynlari, mikserlar, termopotlar, non pechkalari, oshxonalar, dazmollar, changyutgichlar, telefonlar, planshetlar, parvarish uchun maishiy texnika (fenlar, tarozilar, soch dazmollari, elektr tish cho‘tkalari, ustara va boshqalar), shu jumladan jumladan, zavod qadog‘idagi. Suratga olish texnikasi. | | shikastlanishdan saqlaydigan karton qadoqlardan foydalaniladi. | |
| **Avto ehtiyot qismlar** | | | |
| Akkumulyator batareyalar/ akkumulyatorlar | 5 | | “Ehtiyot bo‘ling”, “Qirrasidan ko‘tarib burib siljitmang”, “Yuqori qismi”, “Xavfli yuk”. |
| Avtomobil disklari | 5 | | |
| Avtomobil korpusining qismlari (elementlari) (eshiklar, kapot, qanotlar, bamperlar va boshqalar) | 1 yoki 2 | Qo‘shimcha amortizatsiya materiallari qo‘llaniladi | |
| Avtomobil oynasi, optikasi (faralar, chiroqlar, faralar uchun oynalar, panellar va boshqalar) | 1 yoki 2 | Qo‘shimcha amortizatsiya materiallari qo‘llaniladi | “Yuqori qismi”, “Ehtiyot bo‘ling”, “Oyna”. |
| Katta o‘lchamdagi qismlar: dvigatellar, uzatmalar qutisi, transmissiya, to‘sinlar, romlar, radiatorlar, orqa most, dastaklar va boshqalar. | 2 | | |
| **Mebel, ashyolar va matraslar** | | | |
| Yig‘ilgan yoki qismlarga ajratilgan har qanday korpusli mebellari, shuningdek uning qismlari (tarkibida yog‘och mavjud plitalardan, yaxlit yog’ochdan, plastik va boshqa materiallardan tayyorlangan mebellar) | 1 yoki 2 | Qo‘shimcha amortizatsiya materiallari qo‘llaniladi | Tarkibida shisha mavjud buyumlar “Ehtiyot bo‘ling”, “Oyna”, “Qirrasidan ko‘tarib burib siljitmang”, “Mo‘rt” yozuvlari bilan yorliqlanishi zarur. |
| Mebel ashyolari | 3 yoki 5 | | |
| Yumshoq mebellar (divanlar, kreslolar va boshqalar) | 1 yoki 2 | Buyumning burchaklari karton qoplamalar bilan yopilgan. Buyum qadoqlash matosi, zich polietilen yoki streych plyonka bilan qoplanadi. | |
| O‘ramdagi matraslar | 3 | O‘ramli vakuumli qadoq | |
| Vakuumli o‘rashga imkon bermaydigan materiallardan tayyorlangan matraslar (donali) | 3 | Buyum bir necha qatlamli streych plyonka yoki 2 qatlamli zich polietilenga qadoqlangan | |
| Vakuumli o‘rashga imkon bermaydigan materiallardan tayyorlangan matraslar (2 ta va undan ortiq) | 1 yoki 2 | Buyum qadoqlash matosi, zich polietilen, strech plyonka bilan qoplangan. | |
| Oynali qo‘shimchalarni o‘z ichiga olgan derazalar, eshiklar, stol taxtalari, korpusli | 1 yoki 2 | Romlar, derazalar, eshiklar, stol taxtalari, mebelni yechiluvchi | Tarkibida shisha mavjud buyumlar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| mebel elementlari | | qismlarining burchaklari himoya karton qoplamalar bilan qoplangan. Oyna va eshik taxtalari DVP, gofrokarton yoki ularning oʻrnini bosuvchi mollar bilan qoplangan. Qurilma toʻliq streych plyonka bilan qoplangan. | "Ehtiyot boʻling", "Oyna", "Qirrasidan koʻtarib burib siljitmang", "Moʻrt" yozuvlari bilan yorliqlanishi zarur. |
| **Uskunalar va asboblar** | | | |
| Sanoat mexanizmlari (konveyer uskunalari, beton aralashtirgichlar, kompressorlar, oʻtin kesuvchilar va boshqalar) | 1 yoki 2 | Uskunalar boshqa posilkalarga toʻgʻridan-toʻgʻri tegib turishni qilishni oldini oladigan materialga qadoqlangan. | "Yuqori qismi" (tik holat), "Ehtiyot boʻling", "Oyna" shartli yorliqlanishli |
| Shamollatish va energetika uskunalari, agregatlar, bankomatlar, kofe mashinalari, terminallar (toʻlov, oʻyin va h.) | | | |
| Tibbiy asbob-uskunalar (tashhis, terapevtik va boshqalar) | | | |
| Bog 'jihozlari: oʻroqlar, trimmerlar, nasoslar va boshqa uskunalar | | | |
| Har qanday shu jumladan, musiqiy asboblar, inventarlar | 4, 5 | Ishlab chiqaruvchi zavodning qadoqlari, karton qadoqlar (qutilar) qoʻllanadi. | |
| **Tarkibida moʻrt, plastik, shisha yoki sopol elementlar mavjud buyumlar** | | | |
| Plastmassa buyumlar, oʻlchamlari 120 sm dan oshiq oʻyinchoqlar Akvariumlar, qafaslar, hayvonlarni tashish qafaslari. | 1 yoki 2 | Qoʻshimcha amortizatsiya materiallari qoʻllaniladi. | "Yuqori qismi" (tik holat), "Ehtiyot boʻling" shartli yorliqli. |
| Shisha, billur, keramika, chinni, sopol idishlar, yogʻoch yoki metalldan yasalgan yoki tarkibida shunday materiallar mavjud idishlar | 1 yoki 2 | Buyumlar orasiga joylangan kartonli ajratuvchilar, qoʻshimcha amortizatsiya materiallari qoʻllaniladi | " Yuqori qismi" (Tik holat), "Ehtiyot boʻling", "Oyna", "Moʻrt" shartli yorliqli. |
| Ichki bezak buyumlari: qandillar, lampalar, yoritkichlar, guldonlar, rasmlar, pannolar, koʻzgular, haykallar, surat uchun romlar, soatlar, kuboklar, haykalchalar | | | |
| Shisha, billur, sopol, chinni, fayans materiallar yoki ular ishtirokida tayyorlangan santexnik buyumlar | | | |
| Shisha idishlardagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari (konservatsiya, sharbatlar, dori vositalar va boshqalar), laboratoriya idishlari | | | |
| Ogʻirligi 20 kg dan kam boʻlgan Joʻnatmalardagi parfyumeriya, kosmetika. | 4, 5 | 20 kg dan ortiq yuklar uchun palet taxta yoki taxtali panjara ishlatiladi. | |
| **Sport buyumlari** | | | |
| Sport trenajerlari (jihozlari emas) | 1 yoki 2 | Qoʻshimcha amortizatsiya materiallari qoʻllaniladi. | |
| **Moʻrt boʻlmagan buyumlar** | | | |
| Qadoqlanmagan nashrlar: kitoblar, risolalar, albomlar, bosma mahsulotlar va boshqalar. | 4, 5 | Atmosfera yogʻinlari, quyosh nurlari va chang tushishini oldini olish uchun suv oʻtkazmaydigan shaffof plyonka bilan oʻralgan karton qadoqdan | |
| Kiyim, poyabzal, matolar, charm, yumshoq oʻyinchoqlar, galantereya, gilamchalar | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Dori vositalar | | foydalaniladi. | |
| **Yong'in o'chirish uskunalari** | | | |
| Gazli ballonlar, o't o'chirgichlar | 1 yoki 2 | | "Yuqori qismi" (tik holat), "Ehtiyot bo'ling" shartli yorliqli |
| **Transport vositalari** | | | |
| Mototexnika, qayiqlar (sumkalarga joylangan rezina qayiq va PVX qayiqlardan tashqari), katerlar, qor mototsikllari, gidrotsikllar, kvadrotsikllar, samokatlar, velosipedlar va b. | 1 yoki 2 | | |
| **Qurilish va bezatish materiallari** | | | |
| Metall va PVX plitalar, tarkibida yog'och mavjud taxtalar, laminat, parket | 1 yoki 2 | Pardoz materiallari (laminat, parket) qo'shimcha ravishda suv o'tkazmaydigan shaffof bo'lmagan plyonka bilan o'raladi. | |
| Mayda qurilish materiallari, shu jumladan g'isht va boshqalar. | | | |
| Bezatish materiallari (devor qog'ozi) | 5 | Ishlab chiqaruvchi zavodning qadoqi, karton qadoq (qutilar) qo'llaniladi. | |
| To'rlar | | O'ramli to'rlarning uchlari zich mato bilan o'ralgan. Yassi to'rlar to'planib bir-biriga bog'lab qo'yiladi. | |
| Profilli (yog'och, plastmassa, metall) buyumlar, plastik (plintuslar, burchaklar, quvurlar, armatura) | | Uchlari himoya qoplamalar bilan qoplanadi. Qurilmaning usti to'liq polietilen qatlami bilan qoplanadi. | |

## 4-Ilova Manipulyatsiya (amallar) belgilari

**Jo'natmalarni manipulyatsiya belgilari bilan yorliqlash**

Jo'natmalarni manipulyatsiya belgilari bilan yorliqlash - bevosita mahsulotlar, idishlar, qadoqlardagi, yoki tikilgan, yopishtirilgan yoki biriktirilgan yorliqlardagi tovarlarni saqlash, qayta yuklash, tashish, ishlatish paytida ishlov berish usulini belgilaydigan ogohlantiruvchi yozuvlar, shartli belgilar va qaydlar.

Manipulyatsiya belgilarining tasviri, nomi va maqsadi quyidagi jadvalda ko'rsatilganlarga mos kelishi kerak. Agar manipulyatsiya belgilari bilan yukni boshqarish usulini ifoda etishning iloji bo'lmasa, ogohlantiruvchi yozuvlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Ogohlantiruvchi yozuvlaridagi harflarning bo'yi kamida 4 sm bo'lishi kerak, yozuv tushunarli, to'liq va ko'zga tashlanadigan bo'lishi kerak.

| Belgining raqami va nomi | Belgining tasviri | Belgining maqsadi |
|---|---|---|
| 1. Mo'rt. Ehtiyot qiling |  | Jo'natmaning mo'rtligi. Posilka bilan ehtiyotkor bo'lish lozim. |
| 2. Quyosh nurlaridan saqlang |  | Yukni quyosh nurlaridan saqlash lozim. |
| 3. Namlikdan saqlang |  | Yukni namlik ta'siridan saqlash lozim. |
| 4. Nurlanishdan saqlang |   | Nurlanishning har qanday turi yukning xossalariga(masalan, plyonkani namoyishiga) ta'sir qilishi va ularni o'zgartirishi mumkin |
| 5. Harorat cheklovi |   | Yukni saqlash yoki unga nisbatan biror-bir harakatni amalga oshirish mumkin bo'lgan harorat oralig'i |
| 6. Tez buziladigan yuk |  | Belgi tez buziladigan yuklarni tashish Qoidalariga muvofiq tashiladigan yuklarga nisbatan qo'llaniladi |
| 7. Germetick qadoq |  | Tashish, ishlov berish va saqlash paytida qadoqni ochish taqiqlangan. |
| 8. Ilgakda ko'tarilmasin |  | Yukni ko'tarishda ilgaklardan foydalanish taqiqlangan |
| 9. Arqonlash joyi |   | Yukni ko'tarish uchun arqon yoki zanjirlarni o'rnatish joyini ko'rsatadi |

| | | |
|---|---|---|
| 10. Bu yerda aravada ko‘tarish taqiqlangan |  | Yukni ko‘tarish paytida aravani qo‘llash mumkin bo‘lmagan joylarni ko‘rsatadi |
| 11. Yuqori qismi |  | Yukni to‘g‘ri tik holatini ko‘rsatadi |
| 12. Og‘irlik markazi |  | Izoh - Belgining joylashishiga misol, yukning og‘irlik markazini ko‘rsatadi. belgi og‘irlik markazi geometrik og‘irlik markaziga to‘g‘ri kelmasa qo‘llaniladi |
| 13. Bevosita yukni o‘zini ko‘taring |  | Faqat bevosita yukni o‘zini ko‘tarish lozim, ya'ni yukni qadog‘idan ko‘tarish taqiqlangan. |
| 14. Bu yerdan ochilsin |  | Qadoq faqat belgilangan joydan ochiladi |
| 15. Yumalatilmasin/qirrasiga ko‘tarib siljitilmasin |  | Yukni chayqalishiga va qirrasiga ko‘tarib siljitilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim |
| 16. Og‘irligi bo‘yicha tahlam cheklovi |   | Transport qadog‘ining tahlamida ruxsat berilgan maksimal yuklamani bildiradi |
| 17. Tahlamda qatlamlar cheklovi |   | Bir birining ustiga tahlash mumkin bo‘lgan bir xil hajmdagi yuklarning maksimal soni, bunda n – maksimal son |
| 18. Bu yerda qisilsin |  | Yukni qisqichlar yordamida ushlash joylarini ko‘rsatadi |
| 19. Qisilmasin |  | Qadoq ko‘rsatilgan tomonlardan qisilmasligi lozim |
| 20. Sanchqili yuklash mashinalardan foydalanmasin |  | Sanchqili yuklash mashinalardan foydalanish taqiqlangan |

## 5-Ilova BTS yukxatining shakli va toʻldirish tartibi

**BTS yukxatining shakli va toʻldirish tartibi**

Quyidagi xizmatlarni koʻrsatishda BTS yukxatlari toʻldiriladi:

- "Tezkor pochta";
- "Xalqaro pochta aloqasi";
- "Kuryerlik xizmatlari";
- «E-COM»;
- "Yigʻma yuk".

BTS yukxatini toʻldirish Buyurtmachi/Joʼnatuvchi/Oluvchining va BTS-ning Joʻnatmani qabul qiladigan/yetkazib beradigan vakilining birgalikdagi vazifasidir. BTS yukxati - pochta va kuryerlik xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha Shartnomaning qisqa varianti hisoblanadi. Buyurtmachining/Joʼnatuvchining BTS-ning yukxatidagi imzosi [www.BTS.uz](http://www.BTS.uz) veb-saytda joylashtirilgan BTS xizmatlarini koʻrsatishning Umumiy shartlari bilan belgilanadigan shartlar boʻyicha shartnoma tuzilishini anglatadi. Buyurtmachi/Joʼnatuvchi kiritilgan maʼlumotlarning toʻliqligi va toʻgʻriligi uchun javobgardir.

**Toʻldirilgan BTS yukxatining namunasi**




**Yuborishda Buyurtmachi quyidagi maʼlumotlarni koʻrsatishi kerak:**

**<u>«Отправитель» (“Joʼnatuvchi”) bloki:</u>**

**«Название/ФИО»** (**"Nomi/FISh"**) - Jo'natuvchi kompaniyaning nomi yoki, agar Jo'natuvchi jismoniy shaxs boʻlsa, uning toʻliq ismi-sharifi koʻrsatiladi.
**«Адрес»** (**«Manzil»)** – Joʻnatmaning viloyati, shahri/aholi yashash punkti, Joʻnatmani topshirish manzili koʻrsatiladi. Agar Joʻnatmani kuryer olib ketsa, kuryer chaqirilgan manzil koʻrsatiladi. Agar Joʻnatma BTS ofisida topshirilsa, BTS ofisining manzili koʻrsatiladi.
**«Телефон»** (**«Telefon»)** – Jo'natuvchining aloqa telefoni koʻrsatilgan. Joʻnatmani yetkazib berish toʻgʻrisida SMS-xabar berish xizmatidan foydalanish uchun mobil telefon raqamini koʻrsatish tavsiya etiladi.

Agar Buyurtmachi/Jo'natuvchi yuridik shaxs boʻlsa, Ijrochi qoʻshimcha maʼlumotlarni (masalan, STIR) talab qilishi mumkin.

**«Получатель» ("Oluvchi") bloki:**
**«Название/ФИО»** (**"Nomi/FISh"**) - Oluvchi kompaniyaning nomi yoki, agar Oluvchi jismoniy shaxs boʻlsa, uning toʻliq ismi-sharifi koʻrsatiladi.
**«Адрес» («Manzil»)** – Joʻnatmaning yetkazib berish viloyati, shahri /aholi yashash punkti, Joʻnatmani topshirish manzili koʻrsatiladi. Agar Joʻnatmani kuryer yetkazib bersa, yetkazib berish manzili koʻrsatiladi. Agar Joʻnatma BTS ofisida topshirilsa, BTS ofisining manzili koʻrsatiladi.
**«Телефон» («Telefon»)** – Oluvchining aloqa telefoni koʻrsatilgan. Joʻnatmani yetkazib berish toʻgʻrisida SMS-xabar berish xizmatidan foydalanish uchun mobil telefon raqamini koʻrsatish tavsiya etiladi.

**«Подтверждение отправки» ("Joʻnatmani tasdiqlash") bloki:**
**«ФИО Отправителя»** (**"Jo'natuvchining FISh"**) – Joʻnatmani toʻgʻridan-toʻgʻri BTS vakiliga topshiradigan Jo'natuvchi vakilining familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari koʻrsatiladi.
**«Дата/Время»** (**"Sana/vaqt"**) - BTS vakili tomonidan Joʻnatmani qabul qilishning haqiqiy sanasi va vaqti. Yukxatni elektron shaklda imzolashda - imzolangan sana va vaqt.
**«Подпись»** (**"Imzo"**) - "Jo'natuvchining FISh" maydonida koʻrsatilgan Jo'natuvchining imzosi.

**Joʻnatmani qabul qilgan BTS vakili yoki BTSning boshqa vakolatli xodimlari tomonidan yuklarni tashish va yetkazib berish paytida quyidagi maydonlar toʻldiriladi:**

**"Отправка" ("Yuborish") bloki:**
**«Объем. вес, кг» ("Hajmiy ogʻirlik, kg")**- Joʻnatmaning "BxKxU, sm" BTS Space dasturi asosida hisoblangan yukning kg-dagi hajmli ogʻirligi vazni (1-Ilova).
**«ВхШхД, см»** (**«BxKxU, sm»)** - Joʻnatmaning umumiy parametrlari, sm (balandlik, kenglik, uzunlik).
**«Факт. вес, кг»** (**«Haq.vazn, kg»)** -Joʻnatmaning haqiqiy ogʻirligi (massasi), kg.
**«№/Кол-во Мест»** (**«№/joylar soni»)** - Posilka raqami/Joʻnatmada oʻrinlar (posilkalar) soni.
**«Тип Упаковки»** (**«Qadoq turi»)** - Joʻnatmaning qadoqlash turini tavsifi (qop, quti, paket, konteyner va boshqalar).
**«Внутри»** (**«Ichida»)** – Posilkalar ichida joylashgan tarkibning salmoqli turining nomi yoki posilkalarning ichki tarkibining umumlashtirilgan nomi koʻrsatilgan.

**«Опции» ("Optsiyalar") bloki:**

Buyurtmachi/Jo'natuvchi tomonidan Joʻnatmaga nisbatan tanlangan va BTS xizmatining umumiy narxiga kiritilgan optsiyalar roʻyxati (6-Ilova).

Joʻnatmaning ustama toʻlov summasi va yetkazib berishning eʼlon qilingan qiymati farqlanishi mumkin.

**«Опись и стоимость» ("Ro'yxat va narx") bloki:**

Jadval shaklida Joʻnatmaning tarkibi va eʼlon qilingan qiymatining roʻyxati toʻldiriladi. Quyidagi hollarda toʻldirish kerak: "Joʻnatma qiymatini eʼlon qilish" (ООЦ) yoki "Ustama toʻlov" (ТНП) optsiyasini tanlashda.

**«Электронный чек» ("Elektron chek") bloki:**

Xizmatlar, ularning miqdori va narxi, shuningdek Joʻnatma bilan bogʻliq toʻlovlarni tavsiflovchi chop etilgan elektron kvitansiya.

**«Примечания» ("Eslatmalar") bloki:**

**«Примечания» ("Eslatmalar")** – Oluvchining manzilidagi oʻzgarishlar, Posilkalarning qadogʻi boʻyicha izohlari, Posilkada manipultsiya belgilari, datchiklar (shu jumladan, harorat datchigi) mavjudligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar, Joʻnatmani yiriklashtirish yoki birlashtirish, shikoyat dalolatnomasini raqami va uni tuzish toʻgʻrisidagi maʼlumotlar va h. qayd etiladi.

**Joʻnatmani Oluvchiga yetkazib bergandan soʻng, blokda quyidagilar koʻrsatiladi:**

**«Подтверждение получения» ("Qabul qilinganligini tasdiqlash") bloki:**
**«ФИО Получателя»** (**"Oluvchining FISh"**) - Oluvchi, BTS vakilidan Joʻnatmani toʻgʻridan-toʻgʻri qabul qiladigan shaxsning familiyasi va ismi-sharifining bosh harflari.
**«Дата/Время»** (**"Sana/vaqt"**) – Oluvchining Joʻnatmani qabul qilishining haqiqiy sanasi va vaqti. Yukxatni elektron shaklda imzolashda - imzolangan sana va vaqt.
**«Подпись» ("Imzo")** - "Oluvchining FISh" maydonida koʻrsatilgan Oluvchining imzosi.

BTS yukxati Joʼnatuvchi tomonidan BTS Space-dan yoki BTS vakili tomonidan BTS-ning ofisida Buyurtmadagi maʼlumotlarga asosan chop etilganda, BTS yukxatining quyidagi maydonlari va bloklari avtomatik ravishda toʻldiriladi:

- BTS-yukxatini chop etish sanasi, vaqti;
- BTS yukxatini chop etgan operatorning familiyasi, ismi-sharifi;
- Yuk yetkazib beriladigan shahar va BTS ofisi yoki yuk kuryer orqali Oluvchiga yetkazib beriladigan BTS ofisi.

Yukxatning Shtrix-kodi (raqami) Buyurtmani joylashtirishda avtomatik ravishda hosil boʻladi.

MUHIM: yukxatni toʻldirish uchun Joʼnatuvchining xohishiga koʻra Buyurtmachidan kelib tushgan maʼlumotlarni oʻzgartirish taqiqlanadi.

**6-Ilova** **Xalqaro BTS yuk xati**

BTS Complex logistic solutions

ОТ FROM: — ДОСТАВКА да нет

Отправитель Sender

Город City

Адрес Address

Телефон № Phone Number

Отправитель Sender — Фамилия Surname — Подпись Signature

В TO: — ДОСТАВКА да нет

Получатель Receiver

Город City

Адрес Address

Телефон № Phone Number

Фамилия Name — Подпись Signature

| Weight (kg) | № of Pieces |
|---|---|
| | |

_____x______x_______x_____

_____x______x_______x_____

Упаковка PACKAGING

- Конверт ENVELOPE
- Пакет PAK
- Другая OTHER

**Для информации:**
**(+99871) 207 08 09;**
**Короткий номер: 1230**
**www.bts.uz**
**e-mail: info@bts.uz**

Оплата PAY

**Перечисление**

**ДАТА:**
« » **2021г**

Contract №:
Office:
Time:
Receiver:

Курьер courier — Фамилия Surname — Подпись Signature

## 7-Ilova Optsiyalar va qoʻshimcha toʻlovlar

### Optsiyalar

Buyurtmachining so'roviga binoan, BTS quyidagi optsiyalar uchun qoʻshimcha xizmatlarni taqdim etadi. Qoʻshimcha toʻlovlar narxi BTS tarif kartasida koʻrsatilgan.

| Optsiya kodi | Optsiya nomi | Optsiya tavsifi |
|---|---|---|
| **E-COM tovarlarini yetkazib berish** | | |
| ТНП | Ustama toʻlov | BTS vakilidan jo'natma olgandan so'ng, Buyurtmachining iltimosiga binoan, oluvchidan (jismoniy shaxsdan) tovar uchun to'lovni qabul qilish (posilkaning ichki tarkibi). Agar ushbu imkoniyatdan foydalanish zarur bo'lsa, Buyurtmachi BTS bilan jismoniy shaxslardan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish to'g'risida shartnoma tuzishi shart. |
| ТПК | Komplektni (Tovar to'liqligini) tekshirish | Oluvchi (jismoniy shaxs) tomonidan E-COM-da sotib olingan tovarlarning (posilkaning ichki tarkibini) toʻliqligini tekshirish imkoniyati (BTS ofisida yoki Oluvchining manzilida kuryer tomonidan Oluvchi bilan uchrashilgandan keyin 5 daqiqa davomida kutish bilan). |
| ТПР | Ish faoliyatini tekshirish | Oluvchi (jismoniy shaxs) tomonidan E-COM-da sotib olingan tovarlarning (posilkaning ichki tarkibini) to'liqligi va ishlash faoliyatini tekshirish imkoniyati (BTS ofisida yoki Oluvchining manzilida kuryer tomonidan Oluvchi bilan uchrashilgandan keyin 15 daqiqa davomida kutish bilan). |
| ТСП | Tovar Oluvchini O'zgartirish | 7 kun ichida topshirish ofisini o'zgartirmagan holda E-COM tovarining Yukxatidagi Oluvchisini o'zgartirish. |
| ТПО | Tovarni Boshqa Ofisga Yo'naltirish | 7 kun ichida topshirish ofisini o'zgartirish bilan E-COM tovarining Yukxatidagi Oluvchisini o'zgartirish. |
| ТВЗ | Rad etilgan tovarni qaytarish | Oluvchi tomonidan rad etish sababini BTS Spaceda koʻrsatgan holda rad etilgan tovarni qaytarish. Ushbu BTS Yuk xatiga muvofiq Joʻnatuvchiga qaytariladi. |
| **Joʻnatmalar bilan qoʻshimcha ishlar** | | |
| ООЦ | Joʻnatma qiymatini e'lon qilish | Yuborish qiymatini e'lon qilish, ya'ni ushbu Joʻnatma posilkalarining ichki tarkibi qiymatini baholash. E'lon qilingan qiymati koʻrsatilgan Joʻnatmalar uchun va yetkazib berishda ustama toʻlovli Joʻnatmalar uchun BTS yukxatida Joʻnatmaning e'lon qilingan qiymatini koʻrsatish shart. |
| ОВД | Jo'natuvchining hujjatlarini qaytarish | Buyurtmachi tomonidan koʻrsatilgan shaxsga Oluvchi tomonidan imzolangan Joʻnatmaning hamroh hujjatlarini qaytarish. Qaytarish uchun hujjatlar Oluvchi tomonidan tuzilishi va Ijrochiga topshirilishi kerak. |
| ОУМ | Qadoqlash materiallari | BTS tomonidan taqdim etilgan standart qadoqlash materiallaridan foydalanish. Qadoq materiallari roʻyxati va narxi www.BTS.uz veb-saytida koʻrsatilgan. |
| **Kuryerlik xizmati** | | |
| КПГ | "Kuryer Shahar" qabul qilish | BTS ofisi mavjud boʻlgan shahar ichidagi Joʻnatuvchining manzili boʻyicha Joʻnatmani qabul qilish |
| КДГ | "Kuryer Shahar" yetkazib berish | BTS ofisi mavjud boʻlgan shahar ichidagi Oluvchining manzili boʻyicha Joʻnatmani yetkazib berish. |
| КПР | "Kuryer Rayon Markazi" qabul qilish | BTS ofisi mavjud boʻlmagan shahar ichidagi(viloyat tuman markazlari) Joʻnatuvchining manzili boʻyicha Joʻnatmani qabul qilish |
| КДР | "Kuryer Rayon Markazi" yetkazib berish | BTS ofisi mavjud boʻlmagan shahar ichidagi(viloyat tuman markazlari) Oluvchining manzili boʻyicha Joʻnatmani yetkazib berish |

| | | |
|---|---|---|
| КПДП | “Kuryer Olis Hudud” qabul qilish | BTS ofisi mavjud bo‘lmagan shahar tashqarisida (viloyat tuman markazlari) Jo‘natuvchining manzili bo‘yicha Jo‘natmani qabul qilish |
| КДДП | “Kuryer Olis Hudud” yetkazib berish | BTS ofisi mavjud bo‘lmagan shahar tashqarisida (viloyat tuman markazlari) Oluvchining manzili bo‘yicha Jo‘natmani yetkazib berish |
| КДВР | Oluvchining qo’liga yetkazib berish | Jo’natma oluvchiga yuk xatida ko'rsatilgan manzilda topshiriladi. Agar ma'lum sabablarga ko'ra, Oluvchi yetkazib berish vaqtida ko’rsatilgan manzilda boshqa joyda bo'lsa, kuryer belgilangan yetkazib berish manzilidan 2 km radius masofada bo'lsa, jo'natuvchini qo'liga topshiradi. |
| КИП | Oluvchining shaxsini aniqlash | Kuryer Oluvchining shaxsini pasport asl nusxasi, ID yoki haydovchilik guvohnomasi bilan aniqlaydi. Oluvchi shaxsini 15 daqiqa ichida aniqlash imkoni bo'lmasa, jo’natma BTSning eng yaqin ofisiga yetkaziladi. |
| КПЭ | Qavatga chiqish | Kuryerni ko'p qavatli binoning qavatiga chiqishi yoki jo’natmani yetkazib berishi. Yetkazib berish vaqtida to'lov amalga oshirilmasa, kuryer Oluvchini pastga tushishni va jo’natmani o'zi olib ketishini talab qilishga haqli. Oluvchining 15 daqiqa ichida to’lovni amalga oshirmasa yoki jo'natmani Kuryerdan olib ketishni rad etishdan bosh tortsa, jo'natma BTSning eng yaqin ofisiga yetkaziladi. |
| КФО | Foto-hisobot | Kuryer yetkazib berish joyida jo'natmani Oluvchi va/yoki uning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (Oluvchining roziligi bilan) bilan suratga oladi. |
| **Tashish** | | |
| ПАВИА | Avia tashish | Jo‘natmani aviatransportda shaharlar o‘rtasidagi ekspress tashish. Ushbu xizmatyetkazib berish vaqtini tezlashtiradi va "O‘zbekiston havo yo‘llari" aviakompaniyasining parvozlar jadvaliga muvofiq Nukus-Toshkent-Nukus va Urganch-Toshkent-Urganch yo‘nalishlarida foydalaniladi. |

**Qo‘shimcha to‘lov**

Agar Ijrochi Buyurtmachi/Jo’natuvchi/Oluvchining aybi bilan xizmatni bajarishni yakunlamagan bo‘lsa, Ijrochi BTS tarif kartasiga binoan qo‘shimcha to‘lov shaklida hisobni rasmiylashtirishga haqli.

| Qo‘shimcha to‘lov kodi | Qo‘shimcha to‘lov nomi | Qo‘shimcha to‘lov tavsifi |
|---|---|---|
| **Kuryerlik xizmatlari** | | |
| НКДП | Takroriy yetkazib berish | Agar kuryerning Jo‘natmani Oluvchiga topshirishi muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, takroriy yetkazib berish tashkil etiladi. |
| НКПХ | Bo‘sh yurish | Kuryer tomonidan Jo’natuvchidan Jo‘natmani qabul qilinishi muvaffaqiyatsiz kechganida qo‘llanadi. |
| **Saqlash xizmatlari** | | |
| НОХО | Jo‘natmani mas’uliyatli saqlash | Topshirilmagan yoki tarqatilmagan jo‘natmalarni BTS ofisida yoki omborida mas’uliyatli saqlash. |
| НОУТ | Jo‘natmani utilizatsiya qilish | Jo‘natmani Buyurtmachining yozma iltimosiga binoan yoki arxivda topshirilmagan jo’natma sifatida saqlanganidan keyin utilizatsiya (yo‘q) qilish. |
| **Yuklarni tashish** | | |
| ШПТ | Transport vositasini turib qolish vaqti uchun jarima | Yukni transport vositasiga yuklash/tushirish vaqti bunga ajratilgan vaqtdan oshib ketganida qo‘llanadi. |